

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi  
Andijon davlat universiteti

H.R.Zokirova

**O‘ZBEK TILI**  
**MORFONOLOGIYASI**

O‘QUV-USLUBIY QO‘LLANMA

ANDIJON - 2016

Taqrizchilar: Sh.Shahobiddinova – filologiya fanlari doktori, professor.

U. Rahimov – filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Mas’ul muharrir: Z.Qodirov – filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Ushbu o‘quv qo‘llanma Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2016-yil 6-aprel 137-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan 5120100 – filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek filologiyasi) ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasi va Hozirgi o‘zbek tili faning namunaviy dasturi asosida yozilgan bo‘lib, unda nazariy fonetika masalalari yoritilgan.

Mazkur qo‘llanma oliy o‘quv yurti filologiya fakultetining birinchi bosqich talabalariga hamda fonetikaning nazariy masalalarini o‘rganuvchi barcha qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.

Mazkur qo‘llanma ADU o‘zbek tilshunosligi kafedrasining yig‘ilishida (2015 yil 12-may, 3-raqamli bayonnoma), ADU Ilmiy-metodik kengashi yig‘ilishida (2015-yil 26-noyabr, 3-raqamli bayonnoma) muhokama qilinib, nashrga tavsiya etilgan.

## SO`Z BOSHI

Ushbu majmuada “O‘zbek tili morfonologiyasi” fanining maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, ilmiy-nazariy masalalari, umumiylik va xususiylik kategoriyalari, til strukturasi sathli tuzilishi, sistema va struktura, morfologik o‘zgarishlarning sabablari, o‘zbek tili morfonologiyasining mundarijasi va tilshunoslik bo‘limlari tizimidagi o‘rni bilan bog‘liq masalalarga e‘tibor berilgan.

Binobarin, Oliy ta‘lim muassasalarida, ilmiy tadqiqot institutlarida faoliyat ko‘rsatish uchun ham bu fan bo‘yicha muayyan malakaga ega bo‘lish talab etiladi. Negaki, o‘zbek tili morfonologiyasi asosida nazariy va amaliy bilimga, muayyan malakaga ega bo‘lmay turib, bu fan bo‘yicha yetuk mutaxassis bo‘lish qiyin.

Fanni o‘qitishning maqsadi o‘zbek tili morfonologiyasining predmeti, vazifalarini yoritish, fan doirasida o‘rganiladigan asosiy masalalarning mazmun mundarijasini belgilash, til strukturasi sathli tuzilishlari, morfologik o‘zgarishlarning sabablari, o‘zbek tilining morfologik xususiyatlari, morfonologik talablarni yuzaga keltiruvchi omillar, tovush tuzilishlari, tovush ortishi bilan bog‘liq hodisalar haqida ma‘lumot berishdir.

Fanni o‘qitishning vazifalari – talabalarda “O‘zbek tili morfonologiyasi” fanining vujudga kelishi va rivojlanishi bo‘yicha bilimlarni shakllantirish va mustahkamlash; talabalarda o‘zbek tili morfonologiyasi bo‘yicha boshlang‘ich bilimlarni shakllantirish; morfonologik talablarni yuzaga keltiruvchi omillar, tilshunoslik fani bo‘limlari, tilshunoslikda faol qo‘llaniladigan atamalarni o‘zlashtirish va til strukturasi haqida bilim berishdan iborat.

“O‘zbek tili morfonologiyasi” fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- sistema va struktura. Til strukturasi sathli tuzilishi. Sathga ajratish muammolari va tamoyillari. Sath birliklari. Sath birliklari o‘rtasidagi munosabatlar. Bir sathga mansub birliklar o‘rtasidagi munosabatlar. Turli sathga mansub birliklar o‘rtasidagi munosabatlarni bilishi kerak;

-tilshunoslik bo‘limlari tizimida morfonologiyaning o‘rni. Morfemalar zanjiri. Morfemalar zandiridagi morfologik o‘zgarishlar. Morfologik o‘zgarishlarning sabablari. Morfonema tushunchasi haqida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak;

- tillarning morfologik xususiyatlari. Agglyutinatsiya. Agglyutinativ tillarning xususiyatlari. Fleksiya. Flektiv tillarning xususiyatlari. Fuziya. Tilshunoslikda morfonologiya masalasi. Morfonologiya va uning o‘rganish birligi. Praga lingvistik maktabining morfonologik qarashlari. O‘zbek tilshunosligida morfonologiya masalalari haqida tushunchaga ega bo‘lishi kerak.

“O‘zbek tili morfonologiyasi” fani asosiy ixtisoslik fani hisoblanib, 8-semestrlarda o‘qitiladi.

“O‘zbek tili morfonologiyasi” dasturini amalga oshirish o‘quv rejasida keltirilgan falsafa, mantiq, tilshunoslik nazariyasi fanlarida o‘rganiladigan muammolar borasida yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishni talab etadi.

# O‘ZBEK TILI FONOLOGIYASI VA MORFONOLOGIYASI\*

## O‘ZBEK TILI FONOLOGIYASI

### Nutq tovushlarining uch tomoni

Nutq faoliyati tovush yoki tovushlar sistemasi orqali ro‘yobga chiqadi. Nutq tovushlari o‘zida uch aspektni birlashtirgan murakkab hodisadir: birinchidan, u talaffuz a‘zolari bilan boshqariladigan markaziy nerv sistemasi faoliyatidir. Shuning uchun uni inson organizmidan tashqari o‘rganish mumkin emas. Nutq tovushlarining bu tomoni uning fiziologik (yoki biologik) aspekti hisoblanadi. Ikkinchidan, nutqiy faoliyat bo‘lganidan u tabiatdagi har qanday tovush kabi akustik (yoki fizik) xossaga ega. Uning mazkur tomoni akustik (yoki fizik) aspekt sanaladi. Uchinchidan, nutq tovushlarining bosh vazifasi kommunikaqiya vositasi bo‘lib xizmat qilishdir. Bu eng muhim funksional aspektni (sotsial yoki lingvistik aspekt ham deyiladi) tashkil etadi.

### Funksional tomoni

Nutq tovushlarishshng haqiqiy funksiyasi, bosh vazifasi funksional aspekt orqali amalga oshadi. Shuning uchun ayrim tilshunoslar nutq tovushlarining funksional aspektini boshqa aspektlardan ajratgan holda alohida o‘rganish va ularni o‘rganuvchi sohani ham ajratishni tavsiya etadilar. Natijada ayni bir ob‘ektni turli tomondan o‘rganuvchi ikki soha – fonetika va fonologiya yuzaga keldi.

### Fonetika va fonologiya

Fonologiya termini tilshunoslikda XIX asr oxirida yosh grammatikachilar (mladogrammatiklar) maktabining fonetik qonunlariga javoban, nutq tovushlarining artikulyatsion fiziologik-akustik (fizik) tomonidan funksional (lingvistik) tomonini farqlash ehtiyoji bilan paydo bo‘ldi. Garchi fonologiya termini ko‘pchilik tilshunoslar tomonidan e‘tirof etilsa-da, ammo bu termin ostida o‘rganilishi lozim bo‘lgan ob‘ekt masalasida bir xillik kuzatilmadi. Tilshunoslarning juda ko‘p qismi fonologiya termini ostida nutq tovushlarining funksional tomonini, ayrimlari, aksincha, artikulyatsion-akustik tomonini tushunadilar. Har ikki holatda ham fonologiya fonetikaga qarama-karshi qo‘yiladi. Xususan, F.de Sossyur shunday deydi: «Tovushlar fiziologiyasi ko‘p hollarda fonetika deyiladi. Bu termin, bizningcha, nomuvofiq ko‘rinadi. Biz buni fonologiya termini bilan almashtiramiz, chunki fonetika azaldan tovushlar evolyutsiyasi haqidagi ta‘limot bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qolaverishi kerak. Fonetika tarixiy fandır: u voqealarni, o‘zgarishlarni tahlil etadi, zamonda harakat qiladi; fonologiya zamondan tashqaridir, chunki artikulyatsiya mexanizmi doimo

---

\* Нурмонов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990.

o‘ziga o‘zi o‘xshashligicha qolaveradi».<sup>1</sup>

Jahon tilshunosligida fonologiya tilshunoslikning alohida bo‘limi sifatida fonema va ularning farqlovchi belgilarini o‘rganuvchi soha deb e‘tirof etildi (funktional tomoni).

Yuqorida ta’kidlanganidek, fonologiya fonemalar haqidagi ta’limot sifatida yosh grammatikachilarning fonetikani ijtimoiy fanlar qatoriga emas, balki tabiiy fanlar qatoriga qo‘shish konsepsiyasiga qarshi yuzaga keldi. Bunday sharoitda an’anaviy fonetikaga yangi yaratilgan fonologiyaning qarama-karshi qo‘yilishi, so‘zsiz, ijobiy hodisa bo‘ldi. Ammo keyinchalik bir qator tilshunoslar, xususan, daniyalik tilshunos L.Yelmslev va boshqa strukturalizm vakillari asarlarida fonetikadan fonologiyani farqlash shu darajaga yetdiki, ular bir-biridan tamoman ajralgan (fonetika tabiiy fanlar, fonologiya ijtimoiy fanlar qatoriga kiradigan) ikki sohaga aylanib qoldi. Natijada fonologiyaning birligi bo‘lgan fonema o‘zining ob’ektiv reallikdagi material asosidan ajratib qo‘yildi.

Rus fonologiya maktabi vakillari esa ularga qarama-qarshi ravishda I.A.Boduen da Kurtene va L.V.Shcherba an’analarini davom ettirgan holda, bir-biridan ajralgan ikki mustaqil ilmiy predmet – fonetika va fonologiya mavjudligini inkor qiladi. L.V.Shcherba fonologiyani fonetikadan uzib qo‘yuvchilarga tamoman qarshilik ko‘rsatish lozimligini, ma’lum tilning fonologik sistemasini, har bir fonemaning farqlovchi belgilarini faqat uning shu tildagi konkret talaffuzi asosida tadqiq qilish kerakligini uqtiradi.<sup>2</sup>

R.A.Avanesov ijtimoiy hodisa bo‘lgan tilning tovush tomoni bilan til strukturasi elementining sifatidagi nutq tovushlarini o‘rganadigan faqat bitta ilmiy predmet muvofiq kelishini aytadi.<sup>3</sup> Nutq tovushlarini o‘rganadigan ikki predmet emas, balki ikki tadqiqot aspekti mavjuddir. Fonologiya fonetikaning yuqoriroq bosqichi sifatida haqiqiy lingvistika predmetiga aylandi va grammatika bilan bir qatorda til strukturasi o‘rganish uchun xizmat qila boshladi. Har qanday fonolog bir vaqtning o‘zida fonetistdir. Chunki fonologiya oppozitsiyalari konkret tovushlarga asoslanadi. Shu bilan birga, har qanday fonetist ma’lum ma’noda fonolog hamdir. Chunki fonetika tadqiqotchisi har qanday tovushlarni emas, balki nutq tovushlarini, ularning ma’lum tildagi farqli belgilarini o‘rganadi.

Shunday qilib, fonetika va fonologiya o‘zaro chambarchas bog‘langan. Ularning asosiy o‘rganish ob’ekti bitta. Birinchisi eng kichik nutq birliklarini, ikkinchisi esa shu nutq birliklarining farqli (differensial) belgilarini o‘rganadi. Demak, ular o‘zlarining ob’ekti jihatidan emas, balki bir ob’ektning turli o‘rganish aspekti ekani bilan farq qiladi.

## Fonologiya birligi

Fonologiyaning birligi fonemalardir. Fonema – so‘z va morfemalarni shakllantiradigan va ularning ma’nolarinn farqlash uchun xizmat etuvchi, boshqa

<sup>1</sup> Ф де Сессюр. Труды по общему языкознанию. – М., 1977. – С.70.

<sup>2</sup> Щчерба Л.В. Очередные проблемы языковедения // Изв. АН СССР, Отд. лит-рн. и яз. Т.IV. 1945. Вып.5. – С.185 – 186. Аванесов Р.И. Кўрсатилган асар. – С.21.

<sup>3</sup> Аванесов Р.И. Русская литературная и диалектная фонетика – М., 1974. – С.21.

mayda bo‘lakka bo‘linmaydigan tilning eng kichik tovush birligi.

Fonemalar haqidagi ta’limot fonologiyadir. Fonologiya ma’lum bir tildagi fonemalar sistemasini, ularning farqlash belgilarini o‘rganadi.

Fonema termini hozirgi tilshunoslikda qat’iy o‘rin olgan bo‘lsa-da, ammo uning maqomi masalasida xilma-xil qarashlar bor. Fonema tilning eng kichik tovush birligi ekani haqidagi dastlabki ma’lumot I.A.Boduen de Kurtenega mansubdir. Lekin bungacha Sharq tilshunosligida, garchi fonema termini bilan nomlanmagan bo‘lsa ham, lekin ma’no farqlash uchun xizmat qiladigai eng kichik tovush tipi haqidagi tushuncha mavjud edi. Hind tilshunoslari, turkiyshunolar, xususan, Mahmud Koshg‘ariy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburlar tovushning ma’no farqlash tomoniga katta ahamiyat berganlar.

Fonema termini tilshunoslikka Boduen tomonidan kiritildi. Boduen 1870 yildagi «XIX asrgacha bo‘lgan qadimgi polyak tili haqida» nomli magistrlik dissertatsiyasida fonema haqida fikr yuritadi va uni etimologik-morfologik birlik sifatida talqin etadi.

Boduen de Kurtenening fonema haqidagi mazkur konsepsiyasi ayni shu holda uning shogirdi N.V.Krushevskiy tomonidan rivojlantirildi. I.A.Boduen de Kurtenening fonema haqidagi tushunchasi o‘zgarib bordi. Xususan, «Slavyan tillari qiyosiy grammatikasining ayrim bo‘limlari» (1981) asarida fonemani, bir tomondan, «so‘zning fonetik bo‘linmas qismi» hisoblasa, ikinchi tomondan, morfemalar tarkibidagi tovush o‘zgarish qonuniyatlarini hisobga olgan holda boshqa mayda bo‘lakka bo‘linmaydigan tovushlarginamas, balki morfema yoki so‘zning tarkibida bo‘lakka ajralmaydigan bir butun holdagi ikki va undan ortiq tovushlar ham fonema bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Masalan, *vrauqat*, *vorotit* so‘zlaridagi «*ra*» va «*oro*» tovushlari bir morfema doirasida bir butun holda almashinadi. Bu bilan u fonemaga fonetik birlik sifatida emas, balki etimologik birlik sifatida qarashini namoyish etdi.

Shu bilan birga, xuddi shu yerning o‘zida fonemaning quyidagi ikki farqli tomoni borligini ham ko‘rsatadi: 1) antropofonik (ya’ni akustik-artikulyatsion) xususiyatlarning oddiy umumlashmasi, morfemaning harakatlanuvchi komponenti va ma’lum morfologik kategoriya belgisi. Shunday qilib, Boduen de Kurtene fonemaning morfologik aspektdan farq qiladigan antropofonik aspekti ham borligini e’tirof etdi.

Keyinchalik esa u o‘zining fonema haqidagi tushunchasini o‘zgartirdi va unga psixologik nuqtai nazardan yondashdi. Xususan, «Tilshunoslikka kirish» (1917) asarida «inson psixikasidagi tovush haqidagi tasavvur» fonema hisoblanadi.

Hozirgi kunda Rossiyada ikki fonologik maktab mavjud. Har ikki maktab vakillari Boduen de Kurtenening fonologik qarashlarini rivojlantirmoqda.

### **Leningrad fonologiya maktabida fonema nazariyasi**

Leningrad fonologik maktabi asoschisi Boduen de Kurtenening shogirdi L.V.Shcherbadir. U Boduen de Kurteneniig fonema so‘z va morfemalarni farqlovchi belgi ekani haqidagi ta’limotini rivojlantirdi. L.V.Shcherba «Sifat va miqdor nuqtai nazaridan rus unlilari» (1912) asarida fonemaga bergan ta’rifidayoq,

psixologizmdan xoli bo'lsa ham, fonemaning funksional tomoniga e'tibor sezilib turadi. Olimning fikricha, fonema so'zning fonetik sostavini buzmaganda ajratish mumkin bo'lgan, farqlash va ma'no tasavvuri bilan assotsiatsiyalanish imkoniyatiga ega ma'lum bir tilning umumiy tovush tasavvuridir.<sup>1</sup>

L.V.Shcherba keyinchalik fonemaning funksional tomoniga, ya'ni ma'no farqlash xususiyatiga asosiy e'tiborini qaratdi va psixologik talqindan xalos bo'ldi. Jumladan, «Fransuz tili fonetikasi» asarida fonemaga sof funksional tomondan – so'z va uning shakllardan farqlash uchun xizmat qiladigan tovushlar tipi sifatida yondashadi.<sup>2</sup> U fonemani ajratish uchun tovushning artikulyatsion-akustik xususiyati emas, balki ma'no farqlash xususiyati muhim belgi ekanini ta'kidlaydi. Masalan, so'roq yuklamasi *a* turlicha akustik-artikulyatsion xususiyatga ega bo'lishi (baland, past, cho'ziq yoki tez va h.k.) mumkin. Ammo lingvistik nuqtai nazardan ular bir yuklama, bir tovush tipidir.

Shunday qilib, akustik-artikulyatsion jihatdan turlicha tovushlar bir umumiy belgisi bilan tiplarga birlashadi va shu umumiy belgisi bilan boshqa shunday tovush tiplaridan ajralib turadi. L.Shcherba fikricha, ana shunday umumiy belgi ma'no farqlash xususiyatidir. Demak, har bir fonema boshqa fonemadan ma'no farqlash xususiyati orqali ajratiladi. Natijada har bir tilning barcha fonemalari qarama-qarshiliklar sistemasini hosil qiladi.

Ko'rinib turibdiki, L.V.Shcherbaning fonologiya konsensiyasida fonemaning so'z yoki morfemalarning ma'nosini farqlash uchun xizmat qiladigan farqlovchi belgisi asosiy o'rin egallaydi.

L.V.Shcherba fonologik nazariyasining ikkinchi eng muhim tomoni fonema ottenkalari haqidagi ta'limotdir. Uning fikricha, umumiy (fonema)ning talaffuz qilingan real ko'rinishlari ottenkalardir. Boshqacha aytganda, nutqdagi barcha real talaffuz qilinuvchi tovushlar ottenka hisoblanadi. Demak, fonema va uning ottenkalarni o'rtasidagi munosabat ikki bosqich munosabatidir: abstrakt bosqich (fonema), konkret bosqich (ottenka).

L.V.Shcherba ottenkalarni ham tasniflaydi. Fonemaning ottenkalari ichida bittasi turli sabablarga ko'ra shu fonema uchun tipik bo'ladi. Alohida talaffuz qilingan ottenka ana shunday tipik ottenka hisoblanadi va faqat shu ottenka real nutqiy element sifatida tilga olinadi. Boshqa ottenkalar esa tipik ottenkaga nisbatan turlicha talaffuz qilinadi. Ularni o'rganish uchun maxsus «eshitish ko'nikmasi» kerak. Masalan, o'zbek tilidagi *i* fonemasi til orqali tovushlardan keyin kelib (qil, g'ir-g'ir) til orqali *ɪ* holida, lab unlilaridan keyin kelib (tug'il) *u* holida, birinchi bo'g'inda kelib (bir, ich, sira) bilinar-bilinmas talaffuz qilinadi. Ammo mazkur ottenkalar bir «i» fonemasining ma'lum sharoitga muvofiqlashgan turli vakillaridir. Boshqa ottenkalar akustik va artikulyatsion tomondan tubdan farq qilishi mumkin.

Ularni birlashtirib turadigan belgi nima? Mazkur belgini L.V.Shcherba bir sharoitda biri o'rnida ikkinchisi kelolmaslik belgisi hisoblaydi. Amerika tilshunosligi maktabida bu belgi qo'shimcha distributsiya deb yuritiladi. Masalan,

---

<sup>1</sup> Щчерба Л.В. Русские гласные в качественном и количественном отношении. – СПб, 1912. – С.14.

<sup>2</sup> Щчерба Л.В. Фонетика французского языка. Изд. 7-е. – М., 1963.

yuqorida keltirilgan *qil, g'ir-g'ir, biroq, sira* kabi so'zlar tarkibidagi «i» fonemasining vakillari o'rnida boshqasini qo'llash mumkin bo'lsa, ular boshqa-boshqa fonemaning vakillari hisoblanadi. Masalan, *qil, kul, qo'l, qol, kal, kel* va h.k.

Bulardan dastlabki to'rttasida unililar biri o'rnida ikkinchisi kelib ma'no farqlash funksiyasini bajarsa, keyingi ikkitasida qo'shimcha distributsiya munosabatidagi unli ma'nosiz tovush birikmasini hosil qilyapti.

Ma'nosiz tovush birikmasida ham «e» va «a» boshqa, barcha unililarga qarama-qarshi qo'yilgani uchun mustaqil fonema hisoblanadi. Agar *qil* so'zi tarkibidagi «i»ning fonetik sharoitini o'zgartirsak: yo birinchi undoshni, yoki oxirgi undoshni boshqasiga almashtirsak (*bil, til, sil, chil, xil, kil shil; qis, qir, qish, qil, qiz* va h.k.), akustik-artikulyatsion tomondan turli sifatga ega bo'lsa-da, ammo biri fonemasining vakillari sifatida «eshitiladi».

Shunday qilib, fonema, bir tomondan, barcha ottenkalarning umumlashmasi, ikkinchi tomondan, har qaysisi konkret hollarda mazkur fonemaning vakili hisoblanadi. Fonema ottenkalari bir-biriga qarama-qarshi qo'yiladi. Ottenkalar guruhi (fonema) esa boshqa ottenkalar guruhi (fonema)ga qarama-qarshi qo'yiladi. Natijada L.V.Shcherba fonemani qisqacha qilib «konkret vaziyatda ottenkalar sifatida namoyon bo'ladigan umumlashmadir»<sup>1</sup> deb izohlaydi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, fonema qarama-qarshi qo'yish asosida aniqlanadi. Qarama-qarshi munosabatda bo'luvchi ikki minimal birlik qarama-qarshi a'zolar hisoblanadi. O'zaro qarama-qarshi munosabatda bo'lgan fonemalar bir qator belgilarga ega, shu belgilardan bittasi qarama-qarshi munosabatga kiruvchi fonemalarning biri uchun farqlovchi (differensial), boshqalari farqlamaydigan (nodifferensial yoki irrelevant) belgi hisoblanadi. Masalan, o'zbek tilidagi *t* undoshi til oldilik, jarangsizlik, portlovchilik, burun tovushi emaslik, lablashmaganlik kabi belgilarga ega bo'lib, bulardagi dastlabki uch belgisi farqlovchi, keyingi ikki belgisi farqlovchi bo'lmagan belgilar sanaladi. Chunki o'zbek tilida *t* undoshi o'rnida shu keyingi ikki belgiga ko'ra oppozitsiyaga kirishadigan undosh qo'llanilmaydi.

Tilning barcha fonemalari ma'lum farqlovchi belgilarga ko'ra guruhlanadi va shu tilning fonemalari sistemasini tashkil etadigan korrelyativ qatorlarni hosil qiladi. Masalan, o'zbek tilida ovozning ishtirok etish-etmasligiga ko'ra jarangli va jarangsiz undoshlar korrelyativ qatorlarni hosil qiladi. Masalan, p-b, t-d, s-z, k-g, q-g', ch-j va h.k. Shu bilan birga, korrelyativ qatorni hosil etmaydigan alohida qarama-qarshi qo'yish, ya'ni ajratilgan oppozitsiya ham uchrashi mumkin. Masalan, o'zbek tilida «x», «h» undoshlarining jarangli-jarangsizlikka ko'ra korrelyativ qatori yo'q. Chunki ularning jarangli ziddi mavjudmas.

## **Moskva fonologiya maktabida fonema nazariyasi**

Moskva fonologik maktabi o'tgan asrning 30-yillarida, A.A.Reformatskiy

---

<sup>1</sup> Щчерба Л.В. Фонетика французского языка. – С.14 – 20; Л.В.Щчерба концепцияси унинг шогирдлари Л.Р.Зиндер, М.И.Матусевич, Л.Л.Буланин ва бошқалар томонида ривожлантирилмоқда.



ta'бири bilan aytganda, DARS ilmiy markazi asosida shakllandi (mazkur ilmiy markaz asoschilari Dmitriev, Avanesov, Reformatskiy, Sidorovlarning bosh harflaridan olingan). Leningrad fonologik maktabidan farqli ravishda MFMDa fonema ma'lum avtonomlikka ega bo'lgan, so'z va morfemaning tovush qobig'iga bog'liq bo'lmagan mustaqil birlik emas, balki so'z va morfemaning tarkibiy elementi hisoblanadi. LFM va MFMDa fonemaga bunday ikki xil nuqtai nazar bir fonetik qurshovdagi ayrim tovush birikmalarini ikki xil talqin qilishga olib keladi. Masalan, «angla» so'zidagi birinchi tovush A.Shcherba konsepsiyasi bo'yicha «a» fonemasining varianti, chunki fonetik qurshovda «a» fonemasidan boshqa barcha fonemalar ottenkasi bilan qarama-qarshi munosabatda bo'la oladi. Moskva fonologik maktabi konsepsiyasiga ko'ra, bu fonema «o» fonemasining varianti, chunki o'zak tarkibida kuchli pozitsiyada (urg'u ostida) «o» holida talaffuz qilinadi.

Moskva fonologik maktabi konsepsiyasining katta yutug'i shundaki, ular so'z shaklining tovush tomonini farqlash darajasiga ko'ra fonemalarni ikki pozitsiyasi – maksimal farqlash pozitsiyasi (kuchli pozitsiya) va minimal farqlash pozitsiyasi (kuchsiz pozitsiya)ga ajratadi.

Qurshovdagi tovushlarning ta'siriga kam berilgan, perseptiv tomondan maksimal differensial pozitsiya fonemalarning kuchli pozitsiyasi hisoblanadi. Rus tili unilari uchun bunday pozitsiya urg'u osti pozitsiyasi, undoshlar uchun esa unli oldi pozitsiyasi hisoblanadi. O'zbek tili unilari uchun so'zning faqat bir unidan tashkil topgan so'zning birinchi bo'g'ini kuchli pozitsiyadir.

R.A.Avanesov fonemalar pozitsiyasini tasniflarkan, ma'lum bir fonemaning bir belgisi uchun kuchli pozitsiya shu fonemaniig boshqa belgisi uchun kuchsiz bo'lishi mumkinliginp aytadi. Shuning uchun u pozitsiyalarni quyidagi to'rt guruhga ajratadi:

1. Jarangli-jarangsizlik belgisi uchun ham, qattqlik-yumshoqlik belgisi uchun ham kuchli pozitsiya.
2. Jarangli-jarangsizlik belgisi uchun kuchli, qattqlik-yumshoqlik belgisi uchun kuchsiz pozitsiya.
3. Qattqlik-yumshoqlik belgisi uchun kuchli, jarangli-jarangsizlik belgisi uchun kuchsiz pozitsiya.
4. Har ikki belgi uchun absolyut kuchsiz pozitsiya.

Pozitsiya tushunchasi asosida MFM fonema variantlari va variatsiyalarini ham ajratadi. Jumladan, A.A.Reformatskiy kuchsiz pozitsiyalarli ikkiga – perseptiv kuchsiz (bilish tomonidan) va signifikativ kuchsiz (farqlash tomonidan) pozitsiyalarga ajratgani holda, birinchisi fonema variatsiyalarini, ikkinchisi esa variantlarini hosil qilishini aytadi. Birinchisiga «a»ning turli ottenkalari: «mat», «mat», «myat», «myat»; ikkinchisiga so'zning oxirgi pozitsiyasi – prud va prut kiritiladi.

MFMning yana bir yutug'i muayyan belgisi asosida oppozitsiyaga kirishgan fonemalarning shu belgi uchun kuchsiz pozitsiyada oppozitsiyaning yo'qolishi, ya'ni ikki fonemaning bir variantga muvofiqlashuvi – neytralizatsiyasi haqidagi ta'limotdir. Masalan, *yod* va *yot*. MFM fonemani avtonom holda emas, balki morfema va so'zning ichida uning elementi sifatida o'rganganidan

morfonologiyaning vujudga kelishiga qulay sharoit yaratdi.

MFМ pozitsiya tushunchasi bilan bog‘liq giperfonema tushunchasini ham tilshunoslikka olib kirdi. Masalan, urg‘uli bo‘g‘in oldida kelgan «o» va «a» unilari rus tilida neytralizatsiyaga uchraydi. Masalan, *baran*. Bu so‘zdagi birinchi a tovushi o fonemasining ham, a fonemasining ham varianti bo‘lishi mumkin; ammo qaysi fonemaning varianti ekanini isbotlash qiyin. Bu variant a-o gruppasidagi fonemalardan birining varianti hisoblanadi. MFМ terminologiyasi bo‘yicha ana shunday fonemalar guruhi giperfonema sanaladi.

### **Praga tilshunoslik maktabida fonema nazariyasi**

Jahon tilshunosligi oldida Praga tilshunoslik to‘garagining katta xizmati shundaki, fonologiyani ilmiy predmet sifatida shakllantirdi. Praga tilshunoslik to‘garagining fonologik konsepsiyasi N.S.Trubetskoyning «Fonologiya asoslari» kitobida mujassamlashgan.

N.S.Trubetskoy konsepsiyasi bo‘yicha fonologik sistema leksik va grammatik ma‘nolarni farqlash uchun xizmat qiladigan fonologik oppozitsiyalar (LFМ bo‘yicha fonologik qarama-qarshiliklar) majmuasi sifatida talqin qilinadi. U filologiyada asosiy rolni fonemalar emas, balki ularning ma‘no farqlash funksiyasi o‘ynashini ta‘kidlaydi.<sup>1</sup>

Har qanday fonema fonologik oppozitsiya sistemasida ma‘lum tarkibga yoki strukturaga egaligi uchun ham ma‘lum fonologik mazmunga ega bo‘ladi. Fonema abstrakt birlik sifatida qaraladi. Konkret tovushlar fonemaning moddiy simvollari hisoblanadi. Fonema moddiy jihatdan bir qancha tovushlar orqali reallashishi mumkin. Bunday reallashgan har xil tovushlar shu fonemaning variantlari sanaladi.

Praga tilshunoslari variantlarni *majburiy, fakultativ va individual* turlarga bo‘ladilar. *Majburiy variantlar*, o‘z navbatida, *pozitsion, kombinator va uslubiy* variantlarga ajratiladi.

Fonemaning urg‘uga, so‘z xarakteriga, nutq melodikasiga xoslangan variantlari *pozitsion*; nutq oqimida yondosh fonemalar ta‘siridagi variantlar *kombinator*; talaffuz uslubi bilan xoslangan variantlari *uslubiy* variantlar sanaladi (to‘liq uslub, og‘zaki uslub va h.k.). Bir pozitsiyaning o‘zida so‘z ma‘nosini o‘zgartirmagan holda o‘zaro almashinib kelgan variantlar *fakultativ* variantlardir. Fakultativ variantlar ko‘pincha dialektal farqlanishlar natijasida vujudga keladi. Masalan, *borinq, bariq*; ayrim kishilarning nutq xususiyati bilan bog‘liq variantlar individual variant xisoblanadi.

N.S.Trubetskoy fonologik oppozitsiyalarni uch asosga ko‘ra tasnif qiladi:

- 1) oppozitsiya sistemasiga munosabatiga ko‘ra;
- 2) oppozitsiya a‘zolari o‘rtasidagi munosabatga ko‘ra;
- 3) turli pozitsiyalarda ularning amal qilishiga ko‘ra.

Birinchi belgiga ko‘ra, bir o‘lchovli, ko‘p o‘lchovli, proporsional va ajralgan oppozitsiyaga bo‘linadi.

Ikkinchi belgiga ko‘ra, privativ (oppozitsiya a‘zolaridan biri belgining bor-

---

<sup>1</sup> Трубецкой Н.С. Основы фонологии. – М., 1960. – С.74.

yoʻqligi bilan ikkinchisidan farqlanadigan oppozitsiya), *gradual* (nutq apparatining ochilish darajasiga asoslangan oppozitsiya, masalan: *kir-kar*), *teng qimmatli* (mantiqan har ikki aʼzo teng huquqli boʻlgan oppozitsiya) oppozitsiyalarga ajratiladi.

Uchinchi belgiga koʻra, *doimiy va neytrallashgan* oppozitsiyalarga boʻlinadi.

Neytrallashish jarayonida oppozitsiyaga kirishayotgan fonemalar oʻrtasida fonologik qimmatga ega belgi yoʻqoladi. Lekin umumiy belgilari saqlanib qoladi. Masalan, oʻzbek tilida *yot-yod* oppozitsiyasida soʻz oxirida t-d oʻrtasidagi jarangli-jarangsizlik belgisi yoʻqoladi, boshqa umumiy belgilar (til oldi, portlovchi) saqlanib qoladi.

N.S.Trubetskoyning fonologik oppozitsiyalar tasnifi amaliy ahamiyatga ega, chunki u maʼlum bir fonemaning fonologik qimmatini belgilashda yordam beradi.

Xullas, barcha fonologik konsetsiyalarda fonema lingvistik birlik sifatida tan olinadi. Bunday konsepsiyalarning tayanch nuqtasi Boduen de Kurtenening fonologik iazariyasi hisoblanadi, LFM fonemani soʻz va morfemadan ajralgan abstrakt birlik sifatida talqin etsa, MFM unga soʻz va morfemalarning tarkibiy elementi sifatida yondashadi.

Praga lngvistik toʻgaragi fonemani abstrakt birlik sifatida talqin etishda LFMga yaqin tursa, pozitsion, kombinator variantlar, variantlar neytralizatsiyasi kabi masalalarda MFMga yaqin turadi.

Farqlovchi belgilar bilan fonemaning atom talqini chambarchas bogʻliqdir. Fonemaning atom talqiniga koʻra, farqlovchi belgilar maʼlum darajada mustaqillikka ega boʻlib, fonema shu farqlovchi belgilar majmuasidir. L.R.Zinder fikricha, bunday talqin farqlovchi belgilarni birlamchi fonologik birlik sifatida tan olishga imkon beradi. Fonemaga bunday munosabatlar majmuasi sifatida qarash uni material substansiyasidan ajratib qoʻyadi. Bu esa obʼektiv dunyodagi predmetlarning real mavjudligini inkor qiluvchi va L.Yelmslevning lingvistik nazariyasiga asos boʻlgan mantiqiy pozitivizmning taʼsiridir.<sup>1</sup>

Lekin bizning nazarimizda til va nutq farqlanishiga koʻra fonemaning mazkur talqini mohiyat va hodisani aks ettiradi va dialektika qonuniyatlariga toʻla muvofiq keladi.

### **Oʻzbek tili fonemalarining farqlovchi belgilari**

Fonemaning farqlovchi elementlarini ajratishda sistema nuqtai nazaridan yondashilsa, oʻzaro maʼlum munosabatga kirishgan, har qaysisi oʻziga xos xususiyatga ega elementlardan tashkil topuvchi bir butunlik yoki makrosistema (T.M.Lomtev fikriga koʻra, toʻplam) oʻzbek tilining barcha fonemalar sostavinn oʻz ichiga oladi.

Bir butunlik yoki makrosistema oʻz ichida ayrim belgisi bilan umumiylikni hosil etgan va shu belgisi bilan boshqa shunday umumiyliklardan farqlanadigan kichik butunliklardan – mikrosistemalardan tashkil topadi. Masalan, undoshlar sistemasining oʻzi jarangsiz undoshlar, jarangli undoshlar va boshqalarga

---

<sup>1</sup> Зиндер Л.Р. Общая фонетика. – С.43.

bo‘linadi. Shunday qilib, bir butundan uning eng kichik elementiga qadar tasnif qilish jarayoni ularning farqlovchi belgilari asosida olib boriladi. Eng kichik elementlarni butunliklarga kiritish jarayoni – sintezlash esa elementlar o‘rtasidagi integral belgilarga asoslanadi. Butunni turli belgilarga tayangan holda mayda bo‘laklarga bo‘lish mumkin. Ma’lum bir belgiga asosan har qaysi bo‘linish butun elementlarni o‘z ichiga olishi kerak. Masalan, o‘zbek tilida undoshlarning jarangli-jarangsizlik belgisiga ko‘ra bo‘linishi barcha undoshlarini o‘z ichiga olsa, paydo bo‘lish o‘rniga ko‘ra bo‘linishi ham barcha undoshlarni o‘z ichiga olishi kerak.<sup>1</sup>

Hozirgi o‘zbek adabiy tili fonologik sistemasida so‘z va morfema tarkibidagi shu sistemaga kiruvchi elementlarning farqlovchi belgilariga ko‘ra olti unli va yigirma uch undosh fonema ajratiladi.

### Unli fonemalar sistemasi

Tilning uch darajadagi (yuqori, o‘rta va quyi) ko‘tarilish va lablanish-labnanmaslik belgilari kuchli pozitsiyadagi unli fonemalarning asosiy (konstitutiv) belgilari hisoblanadi. Unlilar qatori (old qator, o‘rta qator va orqa qator) so‘z shakl tarkibidagi pozitsiyaga bog‘liq belgi bo‘lgani uchun unlilarning asosiy belgilari qatoriga kirmaydi.

Unli fonemalarning asosiy belgilariga ko‘ra tasnifini quyidagi jadvalda ko‘ring:

Unli fonemalar	Asosiy belgilari				
	Tilning qo‘tarilish darajasi			Lablanish belgisi bor-yo‘qligi	
	yuqori	o‘rta	quyi	lablangan	lablanmagan
i	+				+
u	+			+	
o‘		+		+	
o			+	+	
e		+			+
a			+		

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, tilning ko‘tarilish darajasiga ko‘ra o‘zbek tilining unli fonemalari oppozitsiyasi «uch pog‘onali», lablanish belgisiga ko‘ra ikki sinfli to‘rtburchak sistemadir.

Keng	o	a
o‘rta keng (o‘rta tor)	o‘	e
tor	u	i

Lablanish belgisi tor unlidan keng unliga qarab kuchsizlanib boradi: u –

kuchli lablangan, o' – kuchsizroq lablangan, o – o'ta kuchsiz lablangan.

Yuqoridagi unli fonemalar tilning ko'tarilish darajasiga ko'ra bo'linishida (o, a: o', e: u, i:) kenglik, o'rta kenglik, torlik belgilari shu mikrostruktura elementlari uchun birlashtiruvchi, mikrostrukturalar uchun esa farqlovchi belgi rolini o'ynaydi. Bu unlilar bir belgiga asoslangan quyidagi teng huquqli oppozitsnyalarni hosil qilishi mumkin: lablanish belgisining bor-yo'qligiga ko'ra: (o-a, o'-e, i-u), kompaktlik-diffuzlik belgisiga ko'ra umumiy, lablanish belgisiga ko'ra farqli belgiga ega, kompaktlik-diffuzlik belgisiga ko'ra: o (kompakt, ochiq), u (diffuz, yopiq), a (kompakt; ochiq), i (diffuz, yopiq), shu bilan birga, mazkur ikki oppozitsiya a'zolari o'rta ko'tarilish (yarim ochiq, yarim yopiq) unlilariga, bir tomondan, «kompakt-kompakt emaslik», ikkinchi tomondan, «diffuz-diffuz emaslik» belgisiga ko'ra oppozitsiyaga kirishadi:

o (kompakt) – u (kompakt emas)

a (kompakt) – o (kompakt emas)

i (diffuz) – e (diffuz emas)

u (diffuz) – o' (diffuz emas).

Unlilarning yuqoridagidek oppozitsiyasini A.M.Shcherbak shunday aks ettiradi.<sup>1</sup>

a – e,	e – i	lablanmagan (oddiy tonnalik)
o – o',	o' – u	lablangan (bemol' tonnalik)
ochiq	yopiq	
yarim	yarim	
ochiq	yopiq	

A.A.Abduazizov o'zbek tili unlilarining ikki farqlovchi belgisiga ko'ra ham oppozitsiyasini ko'rsatadi.<sup>2</sup> Bunga asosan, unlilar quyidagicha oppozitsiyaga kirishadi:

(i-u) yopiq, lablanmagan – yarim yopiq, lablangan:

(i-o) yopiq, lablanmagan – yarim yopiq, lablangan)

(e-o) yarim yopiq, lablanmagan – ochiq, lablangan)

(a-u) ochiq, lablanmagan – yopiq, lablangan)

(a-u) ochiq, lablanmagan – yarim yopiq, lablangan)

Ko'rinib turibdiki, o'zbek tili unlilarining bir belgi asosida farqlanuvchi uchta oppozitsiyasi, ikki belgi asosida farqlanuvchi oltita (unda lablanish belgisi bilan tilning ko'tarilish darajasi belgisi birga olinadi) jami 9 ta unlilar oppozitsiyasi mavjud. Agar lablanish belgisi bilan tilning ko'tarilish belgisi alohida olinsa, o'zbek tilida 13 ta unlilar oppozitsiyasi mavjud bo'ladi.

## Undosh fonemalar sistemasi

Kuchli oppozitsiyadagi undosh fonemalarning asosiy belgilari quyidagi

<sup>1</sup> Щербак А.М. О тюркском вокализме // Тюркологические исследования. – М., 1963. – С.26.

<sup>2</sup> Баскаков П.А., Содиқов С.А., Абдуазизов А.А. Умумий тилшунослик, – Тошкент, 1979. – Б.53.

belgilar hisoblanadi: shovqin va ovozning ishtirokiga ko‘ra, paydo bo‘lish o‘rni va usuliga ko‘ra, palatalizatsiyaning bor-yo‘qligiga ko‘ra.

Hozirgi o‘zbek adabiy tildagi 23 ta undosh fonemalarning yuqoridagi sanab o‘tilgan asosiy belgilarini quyidagi jadvalda ko‘rsatish mumkin:

	p	b	f	v	t	d	s	z	ch	sh	j	k	g	g'	q	x	h	m	n	ng	y	l	
shovqinli	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+							
sonor																		+	+		+	+	
jarangli		+		+		+		+			+		+		+			+	+		+	+	
jarangsiz	+		+		+		+		+	+		+			+	+	+						
portlovchi	+	+			+	+			+		+	+	+		+								
sirg'aluvchi			+	+			+	+		+				+			+	+				+	
affrikat										+													
titroq											+												
burun																		+	+		+		
yon																							+
labial	+	+	+	+														+					
Til oldi					+	+	+	+	+	+	+								+				+
Til o'rta																						+	
Til orqa												+	+								+		
Chuqur til orqa														+	+	+	+						
bo'g'iz																	+						

Fonemaning asosiy belgilari *korrelyativ* va *nokorrelyativ* bo'lmagan belgilar bo'lishi mumkin.<sup>1</sup> Kamida ikki fonemaning asosiy belgilari umumiy bo'lib, birida bor, ikkinchisida yo'qligi bilan ajralib turadigan belgi *korrelyativ* belgi hisoblanadi. Ma'lum belgilar majmuasi faqat birgina fonemaning o'ziga xos bo'lsa, bunday belgilar *nokorrelyativ* belgi hisoblanadi. Masalan, «p» fonemasida jarangsizlik belgisi asosiy va korrelyativ belgidir. Chunki xuddi shu fonemaning asosiy belgilariga ega bo'lgan, ammo undan boshqa korrelyativ belgisining borligi

<sup>1</sup> Дмитриенко С.Н. Фонемы русского языка. – М., 1985. – С.20.

bilan (jaranglilik belgisining borligi bilan) farq qiladigan «b» fonemasi bor. Bundan farqli ravishda x fonemasining jarangsizlik belgisi asosiy, ammo *nokorrelyativ* belgidir. Chunki uning jarangli belgiga ega bo‘lgan ziddi yo‘q.

Bir qator undosh fonemalar jarangli-jarangsizlik belgisiga ko‘ra korrelyativ juftliklarni hosil qiladi: p-b, t-d, k-g, s-z, ch-j, q-g‘, f-v.

Jarangli-jarangsizlik belgisiga ko‘ra korrelyativ munosabatga ega bo‘lmagan fonemalar mazkur belgilarga ko‘ra juftlikka kirmaydigan fonemalar hisoblanadi, masalan, x, y, m, n, r, l, k.

Fonemalarning asosiy, korrelyativ belgilari farqlovchi belgilar sanaladi. Masalan, p fonemasining jarangsizlik, b fonemasining jaranglilik belgilari shu fonemalarning farqlovchi belgilaridir. Chunki mazkur fonemalarning boshqa barcha belgilari umumiy.

Fonemaning asosiy belgilari farqlovchi belgi bo‘lmasligi ham mumkin. Agar asosiy belgi korrelyativ bo‘lmasa, farqlovchi belgi vazifasini o‘tamaydi. Masalan, x fonemasining jarangsizlik belgisi farqlovchi belgi hisoblanmaydi. Chunki boshqa belgilari x fonemasi bilan umumiy, faqat jarangsizlik belgisiga korrelyativ bo‘lgan jaranglilik belgisi borligi bilan undan farqlanuvchi jarangli fonema o‘zbek tilida yo‘q.

Kuchsiz pozitsiyada korrelyativ munosabatdagi juftliklarning farqlovchi belgilari yo‘qolishi mumkin. Korrelyativ juftliklar o‘rtasidagi farqlovchi belgilarning yo‘qolishi neytralizatsiya hisoblanadi. Masalan, o‘zbek tilida so‘zning oxirgi pozitsiyasi undoshlarning kuchsiz pozitsiyasi hisoblanadi. Shuning uchun bu pozitsiyada korrelyativ juftliklar o‘rtasidagi farqlovchi belgi neytralizatsiyaga uchraydi: bop-bob, tig‘-tiq va h.k. Bu fonemalar o‘rtasidagi farqlovchi belgi ular kuchli pozitsiyaga – unli oldiga olinganda yana tiklanadi.

Undosh fonemalar o‘rtasidagi munosabatlarning turlicha tasnifi uchraydi. Masalan, L.L.Bulanin rus tilidagi barcha undoshlar besh farqlovchi belgi asosida o‘zaro oppozitsiyaga kirishishi mumkinligini, bu besh belgi, o‘z navbatida, uch guruhni: *asosiy, korrelyativ, nisbiy* belgilarni hosil qilishini ko‘rsatadi.<sup>1</sup> Paydo bo‘lish o‘rni va usuliga ko‘ra undosh fonemalar belgisi asosiy, jarangli-jarangsizlik, qattiqlik, yumshoqlikka ko‘ra belgisi korrelyativ, shovqinlilik-sonorlikka ko‘ra farqlovchi belgisi nisbiy belgilarga ajratiladi.

Bunga ko‘ra, har bir undosh asosiy, korrelyativ va nisbiy belgilarga ega. Masalan, «b» undoshi portlovchi, labial (asosiy belgi), jarangli belgilar majmuidan iborat.

A.A.Abdualazizov umumiy qabul qilingan undoshlarning artikulyatsion tasnifi asosida o‘zbek tilida quyidagi birlik oppozitsiyalarni ajratadi:

1. Artikulyatsion o‘rni va to‘siqning hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra:

a) labial – til oldi: p-t, b-d, m-n, f-s, v-z, f-sh, v-l, v-r;

b) labial – til o‘rta: f-i, v-y;

v) labial – til orqa: p-k, b-k, f-x, v-g;

g) labial – bo‘g‘iz: f-h, v-h;

d) til oldi – til orqa: t-k, t-k, d-g, s-x, z-g, n-g;

---

<sup>1</sup> Буланин Л.Л. Фонетика современного русского языка. – М., 1970. – С.51.



ye) til oldi – bo‘g‘iz: s-h, z-h, sh-h, j-h, ch-h, j-h.

2. Artikulyatsiya usuli va to‘siqning qanday hosil bo‘lishiga ko‘ra:

a) portlovchi-sirg‘alovchi: p-f, b-v, t-s, d-z, t-sh, k-x, d-j, g-g‘, k-x, x-q, g-x;

b) portlovchi-affrikat: t-i, d-dj,

v) sirg‘aluvchi-affrikat: sh, ch, j, dj;

g) portlovchi shovqinli-burun sonanti: b-m, d - n, g-n;

d) sirg‘aluvchi-sonant: z-l; j-r;

ye) shovqinli sonant-burun sonant: v-m, l - n, r-n;

j) yon sonant-titroq sonant: l-r;

z) titroq sonant-til o‘rta sonant: r-y.

Muallif o‘zbek tili undosh fonemalari o‘rtasida 58 ta birlik oppozitsiyasi mavjudligini, ikkitalik oppozitsiya shunga qaraganda ikki barobar, ko‘plik oppozitsiyalar esa bundan bir necha barobar ko‘pligini ta’kidlaydi.<sup>2</sup>

---

<sup>2</sup> Баскаков Н.А., Содиқов А.С., Абдуазизов А.А. Кўрсатилган асар. – Б.55.

## **O‘zbek tili morfonologiyasi tilshunoslikning alohida bo‘limi sifatida**

Fonema so‘z va morfemalar ichida yashaydi. Demak, fonemalar so‘z va morfemalarni ichida diskret element sifatida o‘zaro sintagmatik munosabatda bo‘ladi. Har bir tilda so‘z va morfemalarning ma‘lum fonetik struktura tiplari (modellari) mavjud. Ammo mazkur masala shu vaqtga qadar tilshunoslikda yetarli o‘rganilmadi. Shu bilan birga, ma‘lum so‘z bir necha morfemalar munosabatidan tashkil topishi va ma‘lum morfema turli morfemik qurshovda turlicha allomorf (variat)lar sifatida yuzaga chiqishi mumkin. Masalan: *qizil + ar – qizar (il-o)*, *sarig‘ + ay (ar) – sarg‘ay (i-o)*, *bilak + i – bilagi (k-g)* kabi so‘zlarda *qizil – qiz*, *sarig‘ – sarg‘*, *bilak – bilag* morflari bir morfemaning ma‘lum pozitsiyaga xoslangan turli varnantlaridir. Bu o‘rinda k-g allofonlarining almashinuvi hech qanday fonologik funktsiya bajarmaydi. Yoki rus tilidagi *begu – bejish* tipidagi almashinuv fonologiyaning ham, grammatikaning ham tekshirish ob‘ektiga kirmaydi. Chunki fonologiyaning vazifasi ma‘lum tildagi fonemalar miqdori va sistemasini belgilash, shuningdek, fonemalarning pozitsiyalari bo‘yicha bo‘linishini va har qaysi pozitsiyada fonemalar variatsiyalarining hosil bo‘lishini tavsiflashdan iborat, grammatika grammatik ma‘no va uning ifodalanish vositalari haqidagi ta‘limotdir.

Morfologik almashinish, o‘z-o‘zidan, fonetika bo‘limida o‘rganilmaydi. Chunki bu yerda hech qanday fonetik hodisa yo‘q. Shuning uchun, avvalo, yuqoridagi fonetik almashinishning xarakterli xususiyatlariga alohida e‘tibor berish, uning tilshunoslikning qaysi bo‘limi tekshirish ob‘ekti bo‘lishi kerakligini aniqlash lozim.

Tovush almashinuvi uzoq vaqtlardan buyon lingvistlar tomonidan o‘rganib kelinadi. Qiyosiy tilshunoslik o‘zining dastlabki taraqqiyot boschichidayoq tovush almashinuviga katta e‘tibor berdi. Ayniqsa, german tillari tadqiqotchilari mazkur masalani alohida o‘rganadilar.

Yaqin yillargacha hind-ovrupo tillarida unlilar almashinuvi (ablaut) fonetik hodisa hisoblanib kelindi. Bunday qarash, ayniqsa, yosh grammatikachilar maktabiga (K.Brugman, G.Xirt va h.k.) xosdir. Ablautga fonetik hodisa sifatida qarash hozir ham ayrim tilshunoslar asarlarida, ayniqsa, slavyan tilshunosligida keng tarqalgan.<sup>1</sup> Tovush almashinuvlariga bunday qarashni A.A.Reformatskiy haqli ravishda keskin tanqid qildi.<sup>2</sup>

Tilshunoslik tarixida tovush almashinuvi nazariyasining ishlanishida Boduen de Kurtene va N.V.Krushevskiy alohida o‘rin egallaydi. Ular birinchi bo‘lib tilshunoslik tarixida tovush o‘zgarishlari va almashinuvlarini bir-biridan farqlab o‘rgandilar. I.A.Boduen de Kurtene tildagi barcha tovush almashinuvlarini ikki kategoriyaga bo‘ladi: *kombinator xoslangan alternatsiyalar; traditsiyaga asoslangan alternatsiyalar*. U birinchi tipdagi alternatsiyalarni fonetikaga, ikkinchi tipdakilarni esa morfologiyaga kiritish lozimligini tavsiya qiladi.

<sup>1</sup> Бернштейн С.Б. Введение в славянскую морфологию // ВЯ. 1968. №3. – С.45.

<sup>2</sup> Реформатский А.А. О соотношении фонетики и грамматики (морфологии) // Вопросы грамматического строя. – М., 1955. – С.100.

F.de Sossyur ko'pgina lingvistlar almashinuv materiali tovush bo'lgani uchun uni fonetik hodisa hisoblab xatoga yo'l qo'yayotganini, almashinuv qanday material asosidan iborat bo'lishidan qat'i nazar, u grammatikaga oidligini ta'kidlaydi.<sup>1</sup>

Lekin mazkur hodisa grammatikaning tekshirish ob'ektidan ham birmuncha farq qiladi. U vaqtda yuqoridagi hodisalar tilshunoslikning qaysi bo'limiga oid bo'lishi kerak?

Til va uni o'rganadigan tilshunoslik birliklari uyg'unligi uchun doimo qayg'urib kelgan I.A.Boduen de Kurtenening o'zida ham bu masala ochiq qoldi. Shunga qaramay, I.A.Boduen de Kurtene asarlari tilshunoslikda fonetika va morfologiya oralig'ida yangi bo'limning ajralib chiqishiga turtki berdi. Uning g'oyalari tayanib N.S.Trubetskoy morfonologiya (fonomorfolgiya) nazariyasiga asos soldi.

E.A.Makayev va Ye.S.Kubryakova haqli ravishda ta'kidlaganlaridek, I.A.Boduen de Kurtene ham, N.V.Krushevskiy ham mazkur sohadagi izlanish natijalarini bir nazariya doirasida umumlashtirmadilar. Tilshunoslikning yangi bo'limi – morfonologiyaning haqiqiy yaratuvchisi N.S.Trubetskoy bo'ldi.

N.S.Trubetskoy ma'lum bir tilning fonologik vositalarini morfologik nuqtai nazardan o'rganishni morfonologiya ob'ekti hisoblaydi. Uning fikricha, faqat som va hind-ovrupo tillari grammatikasidagina emas, balki barcha tillar grammatikasida fonologiya va morfologiya oralig'ida ularni bog'lab turuvchi «ko'prik» sifatida morfonologiya faxriy o'rin olishi kerak. Morfologiyaga ega bo'lmagan tillar morfonologiyaga ham ega bo'lmaydi. Morfonologiya har bir tilning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot beradi. Morfonologiya nuqtai nazaridan qaralgan ayrim til tiplarini esa dunyo tillarining ratsional tipologiyasida guruhlariga ajratish ancha qulay.

N.S.Trubetskoy morfonologiya nazariyasi quyidagi uch bo'limni o'z ichiga olish kerakligini ko'rsatadi:

1. Morfemaning fonologik strukturasi haqidagi ta'limot.
2. Morfemalar o'zaro birikkanda, morfema tarkibida yuz beradigan tovushlarning kombinator o'zgarishlari haqidagi ta'limot.
3. Morfologik funksiya bajaradigan tovush almashinuvi haqidagi ta'limot.

Mazkur uch bo'limdan faqat birinchisi hamma tillar uchun bir xil ahamiyatga ega. Bunga ko'ra, morfonologiyaning birinchi vazifasi har qanday tildagi o'zak va affiks morfemalarning fonetik (fonologik) strukturalarini o'rganishdir. Darhaqiqat, o'zak va affiks morfemalarning fonetik (fonologik) strukturalarini o'rganish ma'lum bir tilning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishda katta ahamiyatga ega. Chunki ayrim undosh va unli fonemalarning ma'lum morfemada qo'llanishi cheklangan. Masalan, turkiy o'zak morfema boshida hech qachon **ng** undoshi kelmaydi. Shuningdek, sof turkiy so'zlar o'zagida qo'sh undoshlar ham ishlatilmaydi (st, lt kabilar mustasno). Singarmonizmga amal qiladigan tillarda o'zak morfema tarkibida ishlatiladigan unlilar tarkibi affiks morfemalardagiga nisbatan ko'proq bo'ladi. Chunki affiks morfemalar vokalizmining ko'p belgilari

---

<sup>1</sup> Соссюр Ф.де. Курс общей лингвистики. – М., 1933. – С.148.

o‘zak morfema unilariga bog‘liq.

Morfonologiyaning boshqa bo‘limlari o‘rganadigan hodisalar turli tillarda turli darajada namoyon bo‘ladi. Jumladan, agglyutinatив tillarda ikkinchi bo‘lim morfonologiyaning asosiy bo‘limi hisoblanadi.<sup>2</sup>

A.A.Reformatskiy fikriga ko‘ra, N.S.Trubetskoyning morfonologiya haqidagi ikkinchi punktida aks etgan «kombinator tovush o‘zgaruvi» ifodasi hodisa mohiyatini xarakterlamaydi. U bu o‘rinda morfemalar varianti (p, ech – p, ek) yoki fonemalar almashinuvi (k-ch) haqida gap ketishi kerakligini aytadi.

Shunday qilib, hozirgi kunda morfonologiya tilshunoslikning alohida bo‘limi sifatida ko‘pchilik tilshunoslar tomonidan tan olindi. Faqat roman, german, slyavan tilshunosligidagina emas<sup>3</sup>, balki turkologiyada ham mazkur masalaga bag‘ishlangan bir qator asarlar maydonga keldi.<sup>4</sup>

### **Morfonologiyaning o‘rganish ob‘ekti**

Morfonologiyaning o‘rganish ob‘ekti masalasida N.S.Trubetskoydan keyin turli xil fikrlar yuritildi. Xususan, A.A.Reformatskiy N.S.Trubetskoy tavsiya qilgan uch bo‘limning faqat oxirgisi – an‘anaviy almashinuvlargina morfonologiyaning o‘rganish ob‘ekti bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. «Russkaya grammatika» (1980)da ham xuddi shunday pozitsiya ko‘zga tashlanadi.

S.B.Bernshteyn, avvalo, fonetik o‘zgarishlar (foneticheskie izmeneniya) va fonetik almashinuvlar (foneticheskie cheredovaniya)ga ajratgan holda birinchisi (vada – vodnyy so‘zlarida bir morfema ikki xil ifodalangan: vad – vod) faqat fonetik pozitsiya bilan bog‘liq bo‘lib, fonetik xarakter kasb etadi. Ikkinchisida esa (gnat – gonyat, nesti – nosit, lezt – lazit) o‘zak morfemalar variantlari o‘zaro boshqacha munosabatdadir. Bu o‘rinda variantlar fonetik pozitsiya bilan emas, balki grammatik (leksik, grammatik), so‘z yasalishi, leksik va boshqa shart-sharoitlar bilan izohlanadi.

O‘z navbatida, almashinuvlarni ham turlarga bo‘lish lozimligini ta’kidlaydi. Almashinuvda ma’lum grammatik pozitsiyada morfema ustiga qo‘yiladigan urg‘u, intonatsiya va boshqalar ham belgilovchi faktor bo‘lishi mumkin. Yuqorida ko‘rsatilgan almashinuvlardan faqat birinchisi morfonologik almashinuv bo‘lib, u morfonologiyaning o‘rganish ob‘ekti bo‘lishi kerakligini ko‘rsatadi. Ikkinchi

---

<sup>2</sup> Трубецкой Н.С. Некоторые соображения относительно морфонологии // Пражский лингвистический кружок. – М., 1967. – С.115.

<sup>3</sup> Ахманова О.С. Фонология, морфонология, морфология. – М., 1966; Редькин Б.А. Построение раздела «Морфонология» // Основы построения описательной грамматики современного русского литературного языка. – М., 1966. – С.7 – 49; Макаев Э.А., Кубрякова Е.С. О статусе морфонологии и единицах её описания. // Единицы разных уровней грамматического строя и их взаимодействие. – М., 1969. – С.87 – 119; Бернштейн С.Б. Введение в славянскую морфонологию // ВЯ. 1968. №4. – С.43 – 59; Лопатин В.В., Улукханов И.С. К соотношению единиц словообразования и морфонологии // Единицы разных уровней грамматического строя и их взаимодействие. – М., 1969. – С.119 – 132; Кубрякова Е.С., Панкрац Ю.Г. Морфонология и описание языков. – М., 1983; Чурганова В.Г. Очерк русской морфонологии. – М., 1973.

<sup>4</sup> Баскаков Н.А., Содиқов А.С., Абдуазизов А.А. Умумий тилшунослик. – Тошкент, 1984. – Б.69 – 71; Закиев М.З. О тюркской морфонологии // Советская тюркология. 1984. №1. – Б.5 – 42; Грамматика современного башкирского литературного языка. – М., 1981. – С.79 – 87.

tipdagi almashinuvda allomrflar almashinuvi yuzaga chiqishi va uning soʻz yasaliş boʻlimiga oidligi, uchinchisi esa supersegment almashinuv ekani aytiladi.<sup>5</sup>

O.S.Axmanova morfonologiyani oʻrganish obʻektini ancha kengaytiradi. U morfonologiyani turli fonemalarning morfologik elementlarini hosil qilish uchun qoʻllanish prinsipini oʻrganuvchi fan sifatida talqin etadi.

V.A.Redkin morfonologiya doirasini yanada kengaytiradi. Uning fikricha, morfonologiya bu soʻz strukturasi va fonema, prosodema terminlari bilan nomlanadigan, uni tashkil etuvchi komponentlar haqidagi taʼlimotdir. U morfonologik vositalarga urgʻu, soʻz komponentlarining joylashish tartibi va qoʻshilish qoidalari, ularning variatsiya (almashinuv) qoidalari, interfiksatsiya va boshqa ayrim soʻzning tovush elementlarini kiritadi.<sup>6</sup>

E.A.Makaev va Ye.S.Kubryakova morfonologiyani morfemalarning fonologik strukturasi haqidagi taʼlimot deb hisoblaydilar. Morfonologiyani bevosita oʻrganish obʻekti morfonologik qatorlar boʻlishi kerakligini taʼkidlaydilar.

Ye.S.Kubryakova yana bir boshqa asarida morfema qurilishidagi va bir morfemaning morflari sostavidagi fonologik farqlanishlar hamda mazkur farqlanishlarning funksional maqsadda qoʻllanilishi morfonologiyani oʻrganish obʻektiga kirishini aytadi.<sup>7</sup>

V.G.Churgunovning fikricha, morfonologiya morfema va soʻz tarkibidagi fonemalarning tashkil topishi haqidagi taʼlimotdir. U morfonologiyani quyidagi muammolar boʻyicha bahs yuritishi lozimligini koʻrsatadi:

1. Yetakchi va koʻmakchi morfemalarning shakllanishida xizmat qiladigan fonemalarning tartibi va tarkibi.

2. Morfem birliklarning soʻz ichida birlashish jarayonida fonemalar tartibi va sostavining oʻzgaruvi (modifikatsiyasi).

3. Bunday modifikatsiyalarning doimiy modellari va ularning soʻz yasaliş va oʻzgarish sistemasidagi oʻrni.

4. Tarkibidagi fonemalarga bogʻliq ravishda morfologik elementlarning tanlanish qonuniyati.

Gʻarb tilshunosligidagi morfonologiyaga bunday xilma-xil qarashlar turkologiyada ham aks etmoqda. Xususan, «Sравnitelno-istoricheskaya grammatika tyurkskix yazыkov. Fonetika» kitobining fonomorfologiya boʻlimi Ye.S.Kubryakova konsepsiyasiga asoslangan. Boshqird tili grammatikasida esa agglutinatsiya jarayonida oʻzak va affikslar oraligʻida hamda kompozitsiya va reduplikatsiya jarayonida yasaliş asoslari oʻrtasida yuz beradigan fonetik oʻzgarishlar morfonologiya predmeti hisoblanadi.<sup>8</sup>

M.Zakiyev ham morfonologiyani morfemalarning fonologik strukturasi oʻrganuvchi taʼlimot sifatida tushunadi. Shu bilan birga, turkiy tillar morfonologiyasiga bagʻishlangan ishlarda turkiy tillar uchun xarakterli boʻlgan singarmonizm hodisasi ham morfonologiyaga kiritiladi.<sup>9</sup>

<sup>5</sup> Бернштейн С.Б. Кўрсатилган асар. – С.49 – 51.

<sup>6</sup> Редкин В.А. Кўрсатилган асар. – С.7.

<sup>7</sup> Кубрякова Е.С., Панкрац Ю.Г. Кўрсатилган асар. – С.108 – 112.

<sup>8</sup> Грамматика башкирского литературного языка. – С.79.

<sup>9</sup> Закиев М.З. О тюркской морфологии... – С.39.

A.A.Reformatskiy esa birinchi bo‘lib turkiy tillar morfonologiyasi haqida fikr yuritib, qozoq va qirg‘iz tillaridagi singarmonizm hodisasini tadqiq qilar ekan, turkiy tillardagi unilarning singarmonistik variantlari grammatik fakt darajasiga ko‘tarilmasligi, shuning uchun u morfonologiya doirasida emas, balki faqat fonetika doirasida o‘rganilishi lozimligini ta’kidlagandi. Lekin turkiy tillardagi morfemalar variatsiyalari ko‘p hollarda bevosita singarmonizm hodisasi bilan bog‘liq bo‘lgani tufayli singarmonizm hodisasini ham morfonologiya dorasida o‘rganish foydadan xoli emas.

### **Morfonologiya birligi** **Morfonema va subforma haqida**

Har qaysi tilshunoslik bo‘limining o‘z o‘rganish birligi bor: fonologiyani – **fonema**, leksikologiyani – **leksema**, frazeologiyani – **frazema**, morfemikaniki – **morfema**, morfologiyani – **so‘zforma**, sintaksisniki – **sintaksema** (Muxin) va h.k. Shuning uchun ayrim tilshunoslar morfonologiyani ham birligini ajratmoqchi bo‘ldilar va bu birlikni morfonema (morfonema) deb nomladilar.

Tilshunoslikka morfonema terminini dastlab polyak tilshunosi G.Ulashin olib kirdi. Uning fikricha, morfonema bu semasiologik – morfologik vazifadagi fonemadir. Masalan, **zaba – zabka (zapka)** so‘zlari o‘zagidagi oxirgi undosh bir morfonema, ammo turli fonemalardir (**b-p**). U «tovush»ga tildan tashqaridagi hodisalarni – shamol guvillashi, hayvon ovozi, umuman, tabiiy tovushlarni kiritadi. Tildagi tovush va fonemalarni ajratmaydi, ularni bir umumiy nom – fonema ostida talqin etadi. Shunday qilib, G.Ulashin tovush, fonema, morfonemalarni ajratdi.

G.Ulashinning morfonema konsepsiyasi Amerika tilshunosligiga ham ta’sir etdi. Xususan, D.Treyjer rus tilidagi besh unli fonemani morfonema hisoblaydi.

N.S.Trubetskoyga morfonologiya nazariyasini asoslash uchun morfonema termini juda qo‘l keldi. Ammo mazkur termin ostida G.Ulashin ifodalagan hodisadan boshqa hodisani aks ettirdi. Masalan, N.S.Trubetskoy *ruka* so‘zidagi **k** bilan *ruki* so‘zidagi **k** o‘rtasidagi farqni fonemaning turli fonetik reallashuvi (variantlari) deb tushunsa, G.Ulashin ularni bir morfemani reallashtiruvchi ikki fonema deb izohlaydi.

N.S.Trubetskoyning fikriga ko‘ra, *ruka* va *ruchnoy* so‘zlaridagi **ruk** va **ruch** fonetik birikuvi bir morfemaning ikki fonetik shaklidir. Bir morfema tarkibida so‘zning morfologik strukturasi talabi bilan biri o‘rnida ikkinchisining almashinib kelishi mumkin bo‘lgan ikki va undan ortiq fonemaning kompleks obrazi morfonema yoki morfonema sanaladi. Masalan, **ruk (ch)** so‘zining ikki shakldagi **k (ch)** tovushlari kompleks obrazni hosil qilyapti.

N.S.Trubetskoyning morfonema haqidagi mazkur talqini boshqacha izohlanganda, morfonema bu morfologik alternatsiya a’zolari majmuidir. Masalan, rus tilidagi **ruka – ruchka, begu – bejish, den – dnya, son – sna** kabi so‘zlaridagi **k-ch, g-j, e-nul, o-nul** va h.k.

A.A.Reformatskiy morfonema tushunchasini inkor qiladi. U morfonologiya til strukturasi uchun ikki «bassisli» sathini: fonologiya va morfologiyani (morfemika) bog‘lab turuvchi «bassisli yo‘q» oraliq sath – «ko‘prik» ekanini ko‘rsatadi. Uning

fikricha, morfonologiya «bazissiz» sath sifatida o'zining birligiga ega emas. Ular, bir tomondan, «bazisli sath» fonologiyaga, ikkinchi tomondan, «bazisli sath» morfologiya (morfemika) va uning birliklari – fonema va morfemalarga tayanadi. U hech qanday «morfonema»ning yo'qligi va bo'lishi ham mumkin emasligini ta'kidlaydi.<sup>10</sup> Xuddi shunday fikr S.B.Bernshteyn tomonidan ham bayon qilinadi. Uning fikricha, N.S.Trubetskoyning rus morfonologiyasiga bag'ishlangan asari mashhur lingvistning e'tiborga tushmagan asarlaridan biridir. Mazkur asar rus grammatikasiga ta'sir etmadi. Bunga bosh sabab shuki, N.S.Trubetskoy morfonologiya muammosini nihoyatda kengaytirib yubordi. Morfonologiya va so'z yasalishi o'rtasida, morfonologiya va fonologiya o'rtasida aniq chegara belgilanmadi. Amalda mavjud bo'lmagan birlik – **morfonemaning** ajratilishi ham morfonologiya tarixida salbiy rol o'ynadi.<sup>11</sup>

V.G.Churgunova morfonologiya birligi sifatida morfonema bo'lishini ma'qullaydi. Uning fikricha, morfonema morfonologik sathning elementar birligidir. Rus tilida u ko'proq kuchli va kuchsiz plozitsiyadagi fonema qatorlarini o'z ichiga oladi. Demak, morfonema – real morfema (morf) komponenti sifatida qaraluvchi bir sinfdagi kuchli va kuchsiz fonemalar birligini aks ettiradigan birlik. Shu bilan birga, u morfonologiyaning yuqori birligi sifatida **submorfni** ham ajratadi.

Ma'lumki, morfema ma'lum ma'no ifodalovchi eng kichik shakldir. Bu shakl bir ma'no bilan bog'langan va turli qurshovda uchraydigan bir necha shakllarning birligi bo'lishi ham mumkin. Bunday shakllar morf, allomorf yoki morfema alternantlari sanaladi. V.G.Churgunova morfni ma'lum jihatdan shakllangan morfonem qatori deb tasavvur qilish va morf strukturasi qandaydir morfonologik qonuniyati haqida gapirish mumkinmi degan savolga quyidagicha javob beradi: «Agar til sun'iy qurilma bo'lganida edi, ehtimol, morf shunday shakllangan bo'lardi. Differensial belgilarning ma'lum sintaktik qoidasi asosida fonema, fonemalar sintaksisi asosida morf, turli qurshovda uchraydigan va bir ma'no ifodalovchi morflar asosida morfema, morfemalardan so'z qurilgan bo'lardi. Ammo til sun'iy qurilma emas, u ko'p asrlik tarixga ega. Tarixiy taraqqiyot jarayonida uning ayrim elementlari morfonem qurilmasini saqlagan holda ma'nosini yo'qotadi. Mazmun plani nuqtai nazaridan ajralmaydigan bu morfonem qator morfonologik strukturaning boshqa elementi bilan o'z aloqasini saqlagan holda morfonologik nuqtai nazardan bo'laklarga ajralishi mumkin. Ana shunday birliklar submorf (yoki fonomorf) deb nomlanadi».

Uning fikricha, submorf – morfonemaning doimiy qatori, so'z tovush qobig'ining barqaror shakllangan elementlarining morfonologik yaxlitligini ifodalovchi birlik.<sup>12</sup> Masalan, **-ets (gor – gorets, kup – kupets, ogur – ogurets), -k (ruch – k – a, trop – k – a, poch – k – a, prob – k – a).**

Morfonema tushunchasi turkologiyaga ham kirib keldi. Xususan, M.Zakiev mazkur tushunchani yoqladi, an'anaviy alternatsiyalarni pozitsion

<sup>10</sup> Реформатский А.А. Фонологические этюды. – М., 1975. – С.116 – 118; яна қаранг: История советского языкознания. Хрестоматия. – М., 1981.

<sup>11</sup> Бернштейн С.Б. Кўрсатилган асар. – С.59.

<sup>12</sup> Чургунова В.Г. Кўрсатилган асар. – Б.37 – 38.

almashinuvlardan ajratmagan holda almashinuvchi fonemalar kompleksini morfonema deb hisoblaydi.<sup>13</sup>

A.A.Abduazizov esa A.A.Reformatskiyning fikrini quvvatlab, quyidagilarni yozadi: «Morfonologiya grammatikaga ham, fonologiyaga ham kirmaydi, lekin ularning birligi bo'lgan fonema va morfemadan foydalanadi. Ba'zi tilshunoslar tomonidan taklif etilgan «morfonema» termini (G.Ulashin, N.S.Trubetskoy va h.k.) o'z kuchini yo'qotadi, chunki u fonemalarning morfemalardagi almashuvi (masalan, «ruka – ruchka»da k(ch) natijasida bir yo'la ikki fonemaga to'g'ri keladi».<sup>14</sup>

Darhaqiqat, fonema variantlari morfema tarkibida uni tashkil etuvchi eng kichik birlik sanalar ekan va fonema konkret morfema va so'zlar tarkibida turli variatsiyalarga uchrar ekan (Moskva fonologik maktabi konsepsiyasi bo'yicha), demak, morfema va so'z tarkibidagi har qanday tovush almashinuvlari fonemalar doirasida yuz beradi. Tilshunoslikda hamma sathlarning o'z birligi bo'lishi shart emas. Masalan, morfonologiyadan tashqari, so'z yasalihi ham ikki sath birliklari (yasalish usuli morfemika bilan bog'liq bo'lsa, yasalma leksema sifatida leksikologiyaning, so'zforma sifatida morfologiyaning tekshirish ob'ekti bo'ladi) bilan ish ko'radi.

Shunday qilib, hozirgi kunda til strukturasi fonologiya bilan morfemika sathlari oralig'ida morfonologiya sathining mavjudligi ko'pchilik tilshunoslar tomonidan tan olindi. A.A.Abduazizov ta'kidlaganidek, morfonologiyani alohida til bosqichi deb hisoblab, unga tegishli barcha xususiyatlarni o'rganish tilning ichki strukturasi ba'zi payqalmay qolgan alomatlarni aniqlashda katta yordam beradi.

Grammatikaning boshqa bo'limlari singari morfonologiya ikki asosiy ma'noda qo'llanadi: birinchidan, ma'lum qurshovda morfema tarkibidagi har qanday fonologik o'zgarish holatlari yoki o'zgarish sistemasi; ikkinchidan, shu o'zgarishlarni o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi. Har qanday o'zgarishni tovushlar, fonemalar yoki fonemalar kompleksining almashinuviga kiritish mumkin. Shuning uchun morfonologiyaning asosiy o'rganish ob'ekti sifatida almashinuvchi tovushlar, fonemalar, fonemalar kompleksi qaralishi lozim.

Tilshunoslikning boshqa bo'limlarida o'rganilmaydigan quyidagi masalalar morfonologiyada o'rganilishi kerak:

1. So'z va bo'g'inning fonologik strukturasi.
2. So'z va morfemaning ma'lum qurshovdagi variatsiyalari:
  - a) agglyutinatsiya jarayonida almashinuvlar. Singarmonizm;
  - b) kompozitsion so'z yasalihi va analitik forma yasalihi jarayonidagi fonetik o'zgarishlar. Aksent – ritmik strukturaning o'zgarishi;
  - v) reduplikatsiya jarayonidagi fonetik o'zgarishlar. O'zak qisqaruvi.

---

<sup>13</sup> Закиев М. О тюркской морфологии // Советская тюркология. 1984. №1.

<sup>14</sup> Ўша ерда.



## 1. So‘z va bo‘g‘in tuzilishi

### So‘z tuzilishi

Turkiy tillar arxitektonikasi uning o‘zak morfemasining bir bo‘g‘iniligi bilan xarakterlanadi.<sup>15</sup> Bir bo‘g‘inli o‘zak morfemalar to‘rt xil fonetik strukturada uchraydi: undosh + unli + undosh (SGS), undosh + unli (SG), unli (G). O‘zak morfemaning bunday fonetik strukturalaridan qaysi biri birlamchi ekani masalasida turkologlar o‘rtasida bir xillik yo‘q. Xususan, N.A.Baskakov qadimgi turkiy o‘zaklar bir bo‘g‘inli va uch tovushli (SGS) bo‘lganini, o‘zakning boshqa fonetik strukturalarini birlamchi SGS tipidagi o‘zakdan kelib chiqqanini ta’kidlaydi. N.A.Baskakov fikrini Sh.X.Oqboev, Sh.Shoabdurahmonov va A.Ishaev ham ma’qullaydilar.<sup>16</sup>

B.M.Yunusaliev fikricha, qadimgi turkiy o‘zaklarning birlamchi fonetik strukturasi SG tipida bo‘lgan. SGS strukturadagi uchinchi undosh grammatik funktsiya bajargan.<sup>17</sup> Shunday fikr A.Ye.Kononov tomonidan ham ta’kidlanadi.<sup>18</sup>

Qadimgi turkiy o‘zaklarning anlauti masalasi, darhaqiqat, qadimgi bir bo‘g‘inli o‘zaklarning fonetik strukturasi nazar tashlansa, unli bilan boshlangan o‘zaklar juda oz qismni tashkil etadi. Masalan, A.M.Shcherbakning turkiy tillar qiyosiy fonetikasiga bag‘ishlangan kitobida keltirilgan qadimgi turkiy bir bo‘g‘inli so‘zlar lug‘atida jami 473 ta o‘zak keltiriladi. Shulardan 408 tasi undosh bilan, faqat 81 tasi unli bilan boshlanadi. Demak, unli bilan boshlangan so‘z atigi 17 foizni tashkil qiladi, xolos. Bu esa N.A.Baskakovning fikrida jon borligini ko‘rsatadi.

Hozirgi o‘zbek tilida SGS tipidagi turkiy o‘zak morfemalar anlautida **ng** undoshidan boshqa barcha undosh fonemalar kela oladi. Masalan, **bor – b, tor – t, zor – z, nor – n, kor – k, yor – y, sol – s, xol – x, hol – h, lol – l, mol – m, pol – p, chol – ch, shol – sh, fol – f** va boshqalar (qadimgi turkiy til anlautida esa l va r sonorlari ham kelmaydi. Bunday undoshlar bilan kelgan so‘zlar ham o‘zlashgan qatlamga mansubdir).

Demak, o‘zbek tilida so‘z boshida **ng** undoshi, turkiy so‘zlar boshida **j** (sirg‘aluvchi) undoshi kelolmaydi. Agar hozirgi o‘zbek tilida so‘z boshida **j** undoshi kelib qolsa, bunday so‘zlar o‘zlashgan qatlamga mansub ekanini ko‘rsatib turadi.

Turkiy so‘zlar boshida undoshlar qator kelmaydi, ya’ni SSGS tipidagi struktura turkiy tillar uchun xos emas. Biroq hozirgi o‘zbek tilida **programma, traktor, spravka** singari bir qancha qator undoshlar bilan boshlanuvchi baynalmilal so‘zlar uchraydiki, ular o‘zbek tili so‘zlari va uning bo‘g‘inlari fonetik strukturasi yangi xususiyat bilan boyitadi. Bu so‘zlar hozirgi o‘zbek

<sup>15</sup> Баскаков Н.А. Каракалпакский язык. Фонетика и морфология. – М., 1952. – С.100; Баскаков Н.А. Введение в изучение тюркских языков. – М., 1969. – С.11.

<sup>16</sup> Акбаев Ш.Х. Фонетика диалектов карачаево-балкарского языка. – Черкеск, 1963. – С.68 – 95; Шоабдурахмонов Ш., Ишаев А. Ўзбек шеваларидаги бир фонетик ходиса // Ўзбек тили ва адабиёти. 1965. №5. – Б.54 – 68.

<sup>17</sup> Юнусалиев Б.М. Киргизская лексикология. Ч.1. – Фрунзе, 1959.

<sup>18</sup> Кононов А.Н. О фузии в тюркских языках // Структура и история тюркских языков. – М., 1971. – С.107 – 120.

orfoepiyasida o'z holicha talaffuz qilinsa-da, ammo kekxa avlod tilida qator undoshlar oldidan yoki undoshlar oralig'iga bir unli orttirish bilan o'zbek tilining o'ziga xos qonuniyatiga moslashtiriladi.

Turkiy so'zlar o'zak morfemalarining oxirida qator undoshlarning kelishi xarakterli emas (SGSS, GSS tipi). Hozirgi o'zbek tilining o'z ichki taraqqiyoti natijasida bir qator so'zlarda o'zak morfemalar oxirida qator undoshlar uchraydi. Bunday struktura SGS va GS strukturali o'zak morfema va GS strukturali affiks morfemaning kontaminatsiyasi natijasida ikkilamchi struktura sifatida vujudga kelgan.<sup>19</sup> Boshqa tillardan so'z qabul qilish natijasida esa bunday so'zlar miqdori orta boradi. Hozirgi o'zbek tilida besh yuzga yaqin bir bo'g'inli so'z oxirida undoshlarning 139 xil qator kelish hollari uchraydi. Mazkur so'zlar genetik tomondan ikki guruhga: 1) o'z qatlam; 2) o'zlashgan qatlamga mansubdir.

Hozirgi o'zbek tilida o'z qatlamga mansub bir bo'g'inli o'zak morfema auslautida **rs, rk, rq, rch, rt, lk, nch, lt, yt, st, ks** singari tovushlarning qator kelish holatlari uchraydi. Bulardan eng ko'p tarqalgani **rs** (o'ndan ortiq taqlidiy so'z o'zagida), **nch** (yigirmadan ortiq so'z o'zagida), **rk** (o'ndan ortiq so'z o'zagida), **lt, rk, rt, ln** (o'nga yaqin so'z o'zagida), **lk** (o'nga yaqin so'z o'zagida) kabi undoshlardir.

Bu qator undoshlaridan har biri ma'lum so'z kategoriyasi bilan chegaralangan. Ya'ni **rt, nt** qator undoshlari ko'proq fe'l tarkibida; **nch, rk, rch, st** qator undoshlari ot (imena) tarkibida; **rk, rs, lt, sht** qator undoshlari esa tasviriy so'zlar tarkibida keladi.

Ko'rinib turibdiki, o'z leksikasiga oid o'zaklar oxirida kelgan ko'pgina qator undoshlarda birinchi o'rinda **y, l, n, r** kabi sonor undoshlar va ikkinchi o'rinda jarangsiz undoshlar bo'ladi. O'z leksikaga oid bunday o'zak morfema fonetik strukturasida og'zaki nutqda ham to'raligicha talaffuz qilinadi (ayrim o'zbek shevalari bundan mustasno). Masalan, mankent shevasida **tot** (adab.orf.tort), Uychi shevasida **qut** (adab.orf.qurt) va boshq.

Hozirgi o'zbek tilida auslautda **nd, hd, hs, rg, sht, jh, ft** kabi qator undoshlar kelgan bir bo'g'inli o'zak morfemalar asosan **o'zlashgan** qatlamga mansubdir (fors-tojik, arab tillariga). Og'zaki nutqda ko'pincha auslautdagi yuqoridagidek qator undoshlardan biri talaffuz etilmaydi (ko'proq oxirgi undosh tushib qoladi: **rg, hs** bundan mustasno). Masalan, **go'sh (go'sht), mush (musht), sus (sust), pas (past)** va boshq. Ba'zan affiksial morfemalar ham o'zakning shu variantiga qo'shiladi: **pas (t) + ay – pasay** (pastay emas), **sus (t) + ay – susay** (sustay emas) va h.k.

O'zbek tilida ham boshqa turkiy tillardagi kabi, unlilar haqida gap ketganda, uning bir bo'g'inli so'zlarda qo'llanishi bilan ko'p bo'g'inli so'zlarning birinchi va keyingi bo'g'inlarida qo'llanishini farqlash lozim.<sup>20</sup> Chunki bir bo'g'inli so'z unlisi barqaror va sifat jihatidan mustaqil xususiyatga ega. Ko'p bo'g'inli so'zlarning

<sup>19</sup> Bunday qator undoshlarning hosil bo'lish yo'llari haqida qarang: Hurmonov A. *Prinzip ekonomii v foneticheskikh izmeneniyax uzbekskogo yazyka*. Avtoref... kand. filol. nauk. – Toshkent, 1973. – S.52 – 61; SGSS tipidagi strukturaning ikkilamchi struktura ekaniini A.M.Щербак ham ta'kidlaydi. Qarang: Щербак A.M. *Sravnitel'naya fonetika...* – S.109.

<sup>20</sup> Щербак A.M. *K'ursatilgan asar*. – B.26.

unlilari esa ma'lum ma'noda beqarorlik xarakteriga, singlarmonizm va umlaut ta'sirida oldindan sintagmatik belgilanish xarakteriga ega.

Shuning uchun bir bo'g'inli so'zlarda (ayniqsa, ochiq bo'g'inda) unli fonemalar o'zlarining sifat va miqdor belgilarini namoyish qiladi. Demak, o'zbek tili unlilar sistemasi mazkur sharoitga qarab belgilanadi. Bu shuni ko'rsatadiki, bir bo'g'inli o'zak morfemalar tarkibida o'zbek tilidagi barcha unlilar qo'llaniladi.

### **Affiks morfemalar tuzilishi**

O'zbek tili affiks morfemalarining fonetik (fonologik) strukturasi ham o'zak morfemalar strukturasi kabi quyidagi tiplarga ega: undosh + unli + undosh (-qiz: yotqiz, -qar: boshqar), (unli) + undosh (-m: bolam, -im: boshim), undosh + unli (-qi: chopqi, -gi: kuzgi), unli (-a: yasha, -i: boyi). Bulardan unli + undosh, ya'ni (G) S tipi o'zak morfema auslautidagi fonema xarakteridagi (unli yoki undosh ekaniga) ko'ra ikki variantli, ya'ni bir morfemalarning ikki allomorfi holida reallashadi: unli bilan tugagan o'zak morfemaga S, undosh bilan tugagan o'zak morfemaga GS varianti qo'shiladi.

Affiks morfemalarni shakllantiruvchi unli fonemalar cheklangan. Bunday morfemalar tarkibida faqat **i, u, a, o** fonemalarigina ishtirok etadi. **E, o'** fonemalari esa affiksial morfemalar tarkibida ishlatilmaydi. Shu bilan birga, affiks morfemalar fonetik strukturasi sifat jihatidan yetakchi morfemaning fonetik strukturasi bog'liq bo'ladi (bu haqda singlarmonizm bahsida alohida ma'lumot beriladi).

### **Bo'g'in tuzilishi**

So'z yoki morfema tarkibidagi morfonologiya jarayoni ko'p hollarda bo'g'in strukturasi bilan bog'liq. Bo'g'in so'zning fonetik bo'lagi sifatida barcha tillarga xos universaliyadan biridir. Shu bilan birga, har qaysi tilda bo'g'in strukturasi boshqa tillardan farq qiladigan o'ziga xos xususiyatlari ham mavjud.<sup>21</sup>

Turkiy tillarda ibora, gap, so'z birikmalari va ayrim so'zlar strukturasi bo'g'inning ekspirator xususiyatga ega ekanini va shu orqali boshqa tillar bilan umumiylik kasb etishini ko'rsatadi. Bo'g'in nutqning artikulyatsion-akustik segmentlari – bo'g'in hosil qiladigan havo oqimining muskul kuchlanishi bo'linishi bilan bog'liq. Shuningdek, bo'g'inlarning allofonlari tarkibida turkiy tillarning o'ziga xos xususiyatlari ham namoyon bo'ladi.

Turkiy so'zlar bir yoki bir necha bo'g'inlardan, bo'g'in esa, o'z navbatida, bir yoki bir necha allofonlardan tashkil topadi. Bo'g'in va fonema so'z tovush strukturasi asosiy birliklaridir. Fonema minimal birlik sifatida ma'lum fonetik pozitsiya va qurshovga muvofiq holda allofon sifatida reallashadi. Shunday qilib, so'z tovush strukturasi asosiy birliklaridan biri, uning tarkibida ham unli, ham undosh fonemalarning allofonlari shakllanadi. Demak, har bir so'z ma'lum bo'laklarga – ma'lum pauza bilan ajralgan bo'g'inlarga, bo'g'in esa fonema allofonlariga bo'linadi.

---

<sup>21</sup> Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. Фонетика. – С.424.

Turkiy tillarda bo‘g‘in hosil qiluvchi element unli tovushlar hisoblanadi. Shuning uchun bo‘g‘in miqdori so‘z tarkibidagi unlilar miqdori bilan belgilanadi.

Turkiy so‘zlar bo‘g‘in strukturasi ham xuddi o‘zak morfema strukturasi kabi quyidagi to‘rt tipdan iborat: G, SG, GS va SGS. Turkiy tillar tarixiy taraqqiyotining keyingi etapidagi ichki taraqqiyot va tashqi ta‘sir natijasida bo‘g‘in strukturasi yana ikki tur – GSS, SGSS bilan boyidi. Natijada turkiy so‘zlar bo‘g‘in strukturasi olti modeli vujudga keldi. Bundan G, SG ochiq, qolganlari esa yopiq bo‘g‘inlar modelidir.

Ko‘rinib turibdiki, turkiy tillarda bo‘g‘in strukturasi turkiy o‘zak morfema fonetik strukturasi bilan bir xillikka ega (o‘zbek tilining taraqqiyot bosqichiga oid baynalmilal so‘zlarning SSGS (sprav-ka) tipidagi birinchi bo‘g‘in modellari bunga kirmaydi). Faqat ikkinchi va undan keyingi bo‘g‘inlar fonetik strukturasi uni tashkil etgan allofonlarning sifati jihatidan farq qiladi. Shu tufayli morfema va bo‘g‘inlarning yuqoridagi olti modeli va uni tashkil etgan allofonlar xususiyatlari haqida so‘z strukturasi bo‘limiga qarang.

## **2. So‘z va morfemaning ma‘lum qurshovdagi variatsiyalari**

### **A. Agglyutinatsiya jarayonidagi almashinuvlar**

Garchi agglyutinativ tillarda o‘zak va affiks morfemalarning chegarasi aniq va o‘zakka affiks morfemalar qo‘shilishi o‘zak fonetik strukturasi keskin o‘zgartirib yubormasligi tipik bo‘lsa-da, ammo bu narsa agglyutinatsiya jarayonida o‘zak hech qachon o‘zgarishga uchramaydi degan xulosani keltirib chiqarmaydi. Turkiy tillarda ham agglyutinatsiya jarayonida yuzaga kelgan ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarning o‘zak va affiks morfemalari oralig‘ida yoki birinchi morfemasi tarkibida fonologik qimmatga ega bo‘lmagan turli xil o‘zgarishlar ro‘y berishi mumkin. Bu o‘zgarishlar morfonologik qimmatga egadir. Affiks morfemalarning o‘zak morfemaga qo‘shilishi natijasida o‘zak morfema fonologik sostavida ro‘y beradigan o‘zgarishlar turkiy tillarda ham mavjud fuziya elementlaridan dalolat beradi.<sup>22</sup> Agglyutinatsiya jarayonida o‘zak va affiks morfemalar oralig‘ida quyidagi morfonologik holatlarni kuzatish mumkin.

### **Unlilar almashinuvi**

**1. Tor unli.** Agar affiks morfema qo‘shilayotgan asos qism ikki bo‘g‘inli bo‘lsa, affiks morfema qo‘shilgandan so‘ng asos qismning ikkinchi bo‘g‘inidagi tor unli ko‘p hollarda nolga aylanadi. Natijada ko‘pincha asos qismni ajratishga qiyinchilik tug‘diradi. Mazkur jarayon yopiq bo‘g‘in bilan tugagan ikki bo‘g‘inli morfemaga unli bilan boshlangan affiks morfema qo‘shilganda ro‘y beradi va quyidagicha almashinuv sodir bo‘ladi:

**a) i – o.** Masalan: **og‘zaki (og‘iz – aki), o‘yna (o‘yin – a), ayri (ayir – i);**

**b) u – o.** Masalan: **buyruq (buyur – uq), ulg‘ay (ulg‘ay – ay), sovrul (sovrul – o);**

---

<sup>22</sup> Кононов А.Н. О фузии в тюркских языках // Структура и история тюркских языков. – М., 1971. – С.108 – 120.

– ul);

v) o – a. **Ong, ot, son** kabi so‘zlarga fe‘l yasovchi morfemalar qo‘shilganda o‘zak morfema tarkibidagi o unlisi a ga aylanadi. Masalan: **ong – angla, ot – ata, son – sana, yosh – yasha, qorin – qarindosh** va boshq. Bu esa o‘zak morfema bilan affiksial morfemaning mustahkam qo‘shilib ketishiga asos bo‘ladi;

g) a – o. A unlisi bilan tugagan morfemaga -q va -v morfemalari qo‘shilganda q va v allofonlari ta‘sirida bunday almashinuv yuz beradi. Masalan: 1) q allofoni ta‘sirida: **tarqa – tarqoq, chanqa – chanqoq, so‘ra – so‘roq, tara – taroq, sana – sanoq**; 2) v allofoni ta‘sirida: **ishla – ishlov, qishla – qishlov, sayla – saylov, alda – aldov**;

d) i – u. 1) q ta‘sirida: **sovi – sovuq, quri – quruq, qovi – qovuq**; 2) v ta‘sirida: **tani – tanuv, o‘qi – o‘quv, to‘qi – to‘quv**;

ye) o – u. V ta‘sirida: **sovuq – suvuq** (dialektal), **qovuq – quvuq** va boshq.

### Undoshlar almashinuvi

1. **k – g, q – g‘**. Q yo k undoshi bilan tugagan ikki yoki ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarga egalik affiksi qo‘shilganda jarangsiz k va q undoshlari intervokal holatda qolib, jarangli korrelyati bilan almashinadi. Masalan: **qiliq – qilig‘i, baliq – balig‘i, soliq – solig‘i, chirik – chirigi, bilak – bilagi, tilak – tilagi, kichik – kichigi**.

2. **g‘g – qq**. Masalan: **bog‘ga – boqqa, tog‘ga – toqqa, yog‘ga – yoqqa**.

3. **gg – kk**. Masalan: **bargga – barkka, eggan – ekkan, teggan – tekkan** (talaffuzda).

4. **g – k**. Masalan: **o‘sgan – o‘skan** (talaffuzda), **tokga – tokka**.

5. **i – z (-ki) (-zi)**. Masalan: **bizni – bizzni, sizni – sizzi** (Namangan shevasi).

6. **i – o (-ni) (-i)**. Masalan: **bizni – bizi, sizni – sizi, (men) (-me-) men – meni, mening, sen – seni, sening**.

7. **n – d (-ni) (-di)**. Masalan: **bizni – bizdi, sizni – sizdi, tolni – toldi** («j»lovchi shevalar).

8. **i – t (-ni) (-ti)**. Masalan: **otni – otti, o‘tni – o‘tti, itni – itti**.

9. **n – sh (-ni) (-shi)**. Masalan: **oshni – oshshi, toshni – toshshi**.

10. **n – r (-ni) (-rr)**. Masalan: **qorni – qorri, shaharni – shaharri** (Toshkent, Namangan shevalari).

11. **n – l (-ni) (-li)**. Masalan: **tolni – tolli, qo‘lni – qo‘lli, yaqinlash – yaqillash** (Namangan).

12. **n – m (-ni) (-mi)**. Masalan: **qizimni – qizimmi, o‘zimni – o‘zimmi**.

13. **n – p (-ni) (-pi)**. Masalan: **gapni – gappi, qopni – qoppi**.

14. **r – d (ber) (bed)**: **berdi – beddi, ko‘rdi – ko‘ddi, yurdi – yuddi, turdi – tuddi** (Namangan).

15. **r – m (ber) (bem)**: **bermasa – bemasa**.

16. **r – t**: **kekirdak – kekittak, shartta – shatta** (Namangan).

17. **r – l**: **birla – billa** (Namangan, Toshkent).

18. **r – s**: **bersa – bessa** (Namangan).

19. **ri – ni**: **burni – burni, o‘rni – o‘nni**.

20. **ch – s: ichsa – issa, kechsa – kessa** (Namangan).  
 21. **t – s: aytsam – ayssam** (Namangan).  
 22. **t – o: sust – susay, past – pasay**.  
 23. **il – o: qizil – qizar**.

### Singarmonizm

O‘zbek adabiy tilida ham ba‘zan bir bo‘g‘inli so‘zlarning struktur elementlari – unli va undosh tovushlar o‘rtasida tovush qatorlari bo‘yicha o‘zaro xoslanish holatlari ko‘zga tashlanadi. Xususan, GS, SGS strukturali so‘zlarda tovushlar palatal garmoniyaga muvofiq birikadi: **qyl, xyl, g‘ysh; bil, til, siz, jil** kabi. Ba‘zan old va orqa qator variantlari ma‘no farqlash funksiyasini ham bajarishi mumkin. Masalan, **tiq – tik**.

Bir qator so‘z yasovchi va forma yasovchi affikslar variativlikka ega. O‘zak fonetik strukturasiga muvofiq, affikslarning variantlaridan biri qo‘llanadi. Affikslar variantlari shu fonetik qurshovda biri o‘rnida ikkinchisi qo‘llan olmaydi. Masalan: -**yq** yo **-ik** (**qyllyq – kichik**), **-qy** (**-g‘y**), **-gi** (**chopqy, cholg‘y, suzgi**), **-qa, -ga** (**toqqa, bizga**) kabi.

Bu faktorlar turkiy tillar uchun xarakterli bo‘lgan singarmonizm qonuniyatining o‘zbek tilida ham ayrim o‘rinlarda mavjudligini ko‘rsatadi. Yuqoridagi o‘rinlarda fonema (unli va undosh) hamda morfemalarning orqa variantlari fonologik va morfematik qimmatga ega emas. Ular morfonologiyaning o‘rganish ob‘ektidir.

Singarmonizm tovushlar moslashuvining alohida turidir. Tovushlarning bunday moslashuvi agglyutinatsiya bilan chambarchas bog‘liq. Turkiy tillarda so‘z va so‘z formalari ko‘pincha ma‘lum affikslar qo‘shib yasaladi. Bu affikslarning yasovchi affiksga qo‘shilishida tartib mavjud. So‘z yasovchi affikslar so‘zning material qismiga, leksik ma‘no ifodalovchi qismiga kiradi. Shuning uchun ular forma yasovchi affikslardan oldin qo‘shiladi. Forma yasovchilarning sintaktik munosabat ifodalamaydigan turi sintaktik munosabat ifodalaydigan turidan oldin qo‘shiladi: o‘zak + so‘z yasovchi affiks + sintaktik munosabat ifodalamaydigan shakl yasovchi affiks + sintaktik munosabat ifodalaydigan affiks.

Ko‘rinib turibdiki, turkiy tillarda so‘z leksik va grammatik ma‘no ifodalaydigan morfemalar bilan cho‘zilib boradi. Affikslarning bunday silsilali o‘sib borishi turkiy so‘zlarning tovush qiyofasini ham shartlab qo‘yadi: o‘zaro maksimal yaqin tovushlardan tashkil topadi. Tillarni tarixiy-tipologik o‘rganish natijalari singarmonizm faqat turkiy, fin-ugor tillariga xos ekanini ko‘rsatadi.

Turkiy tillardagi mazkur nodir hodisa faqat turkologlarning emas, bir qator umumiy tilshunoslik mutaxassislarining ham diqqatini jalb etdi.

A.A.Reformatskiyning fikricha, turkiy tillarda singarmonizm oddiy fonetik hodisa – assimilyatsiyaning bir turigina emas, balki morfologik sathga ham daxldor bo‘lgan fundamental struktur-tipologik hodisadir.<sup>23</sup>

<sup>23</sup> Реформатский А.А. Иерархия фонологических единиц и явления сингармонизма // Исследования по фонологии. – М., 1966. – С.198.

B.de Kurtene ham turkiy tillardagi mazkur xususiyatga to'xtalib, unlilar garmoniyasining so'z bo'g'inlarini bog'lovchi sement vazifasini bajarishini, hind-ovrupo tillarida bunday vazifada leksik urg'u kelishini ta'kidlaydi. Bu esa ko'p bo'g'inli so'zlarda birinchi bo'g'inning boshqa bo'g'inlarga nisbatan kuchli bo'lishini, keyingi bo'g'in tovushlarining esa birinchi bo'g'in tovushlariga moslashishi lozimligini ko'rsatadi. Shuning uchun: «So'zning birinchi bo'g'inining (o'zakning) boshqa bo'g'inlardan ustunligini ifodalashning kulminatsion nuqtasi unlilar garmoniyasi hisoblangan»<sup>24</sup>, – deydi A.M.Shcherbak.

Turkiy tillarda birinchi bo'g'in boshqa bo'g'indan kuchli<sup>25</sup>, shuning uchun bo'g'inlarning tovush sostavi birinchi bo'g'inga moslashadi. V.A.Bogoroditskiy o'zak vokalizmining ergash morfemalarga nisbatan afzal tomoni borligini, u boshqa tovushlar ta'sirisiz, o'zining individual artikulyatsiyasiga ega bo'lishini, o'zak morfema unlilarining palatallik-palatal emaslik, lablanganlik-labalnmaganlik belgilari bilan bog'liq ravishda o'zgaradigan ikki asosiy tip – yo keng, yoki tor unlilardan tashkil topishini ko'rsatadi. Shunga muvofiq, u turkiy tillar o'zagida klassik sakkizta unli (**а-ə**), **ы-і**, **о-ö**, **u-ü** va affikslar tarkibida unlilarning ikki asosiy tipini – keng **а (ə)** va tor **ы (і)** unlilari mavjudligini ko'rsatadi.

N.S.Trubetskoy ham turkiy tillardagi unlilar garmoniyasini e'tiborga olgan holda, yuqoridagidek sakkizta fonologik qimmatga ega unlilar sistemasi mavjudligini va ular faqat birinchi bo'g'in uchungina xos (relevant) ekanini, keyingi bo'g'inlar unlisining tembr belgisi o'zidan oldingi bo'g'in unlilari ostida ularga muvofiqlashuvini, demak, tembr oppozitsiyasi neytrallashuvini ta'kidlaydi.<sup>26</sup>

Shunday qilib, V.A.Bogoroditskiy va N.S.Trubetskoy asarlarida singarmonizm tabiati izchil nazariy talqinini topdi. Singarmonizm haqidagi keyingi ishlarning vujudga kelishida mazkur asarlar nazariy asos rolini o'tadi.<sup>27</sup>

Turkiy tillardagi singarmonizmga bag'ishlangan yangi tadqiqotlar singarmonizmning faqat unlilarga emas, undoshlarga ham ta'sir etadigan hodisa ekanini ko'rsatdi.<sup>28</sup> Unlilar garmoniyasi asosiy, undoshlar garmoniyasi esa unga ergashuvchidir.

Demak, turkiy so'zlar unlilar garmoniyasi bilangina emas, undoshlar garmoniyasi bilan ham «sementlanadi». Unli va undoshlarning o'zaro tembral muvofiqlashuvi so'zga teng bo'lgan bir umumiy kompleksni tashkil etadi. Singarmonizm turkiy so'zlarni shakllantiruvchi, uning butunligini ta'minlovchi, nutq oqimida so'z chegarasini ko'rsatuvchi vositadir. Bu jihatdan leksik singarmonizm leksik urg'u bilan funksiyadosh. Chunki leksik urg'u ham xuddi shu funkionalarni bajaradi. Turkiy tillarda ham so'zlar urg'uli va urg'usiz bo'g'inlardan tashkil topadi, urg'u ekspirator xarakterga ega bo'lib, so'zning oxirgi bo'g'iniga

<sup>24</sup> Щербак А.М. Сравнительная фонетика тюркских языков. – Л., 1970. – С.65.

<sup>25</sup> Е.П.Поливанов туркий тилларда ҳам лексик ургу дастлаб сўзнинг биринчи бўғинига тушганини тахмин қилади. Қаранг: Вопросы восточного стихосложения. – М., 1963. – С.100.

<sup>26</sup> Трубецкой Н.С. Основы фонологии. — М., 1960. С.118.

<sup>27</sup> Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. Фонетика. — М., 1984. С.436.

<sup>28</sup> Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимги туркий тил. - Тошкент, 1982. Б. 11; Кязимов Ф. Принцип сингармонизма в азербайджанском языке. – М., 1954. Т.13. Вып.1. – С.94; Джунусбеков А. Сингармонизм в казахском языке. – Алма-ата, 1980. – С.73.

qarab ko‘chib yuradi.

Turkiy tillarda so‘zni shakllantiruvchi va uni bir-biridan ajratuvchi vosita sifatida singarmonizm va urg‘u ishlatilar ekan, ularning qaysisi bu funksiyani bajarishga asosiy aksent vosita hisoblanadi yoki ikkisi ham funksional teng huquqlimi, degan savolga, turkiy tillar tadqiqotchilari turlicha javob beradilar. Xususan, A.Junusbekov singarmonizm va leksik urg‘uning funksional bir xilligi qozoq tilida keyingisining mavjud bo‘lishini inkor qiladi, deydi. U qozoq tilida asosiy komponenti cho‘ziqlik bo‘lgan ritmik urg‘uning mavjudligini ko‘rsatadi.

Turkiy tillarda ham boshqa har qanday tilda bo‘lgani kabi bir qancha prosodik vositalar mavjud bo‘lib, ularning biri asosiy, qolganlari qo‘shimcha, fakultativ hisoblanadi. Bir qator turkiy tillarda singarmonizm asosiy, leksik urg‘u esa fakultativ prosodik vosita sanaladi. Singarmonizm izchil bo‘lgan turkiy tillarda urg‘uning roli kuchsiz, aksincha, singarmonizm qonuniyati buzilgan tillarda esa urg‘uning roli kuchli bo‘ladi.<sup>29</sup>

O‘zbek tili uchun singarmonizm o‘tkinchi hodisa bo‘lgani sababli bu tilda anglash (persektiv) va ajratish (delimitativ) funksiyasini leksik urg‘u bajaradi. Singarmonizm elementlari esa qadimda amalda bo‘lgan hodisaning qoldig‘i sifatida ko‘zga tashlanadi.

O‘zbek tilida ayrim affiksial morfemalarning bir necha palatal (old qator va orqa qator) va akustik (jarangli va jarangsiz) allomorflari mavjud. Mazkur allomorflar o‘zak morfemaning fonetik xususiyatiga mos holda qo‘llaniladi.

Demak, bu hodisa morfonologiyaning o‘rganish ob’ektidir. Masalan, jo‘nalish kelishigining **-ga, -ka, -qa, -g‘a, -a** variantlari mavjud. Ularning har qaysisining qo‘llanadigan shart-sharoitlari bor. Shuningdek, chiqish kelishigi (-dan, -tan) akustik variantlarga (-gan, -gacha, -gina, -guncha kabi affikslar palatal va akustik variantlarga ega: *o‘simlikka, xalqqa, boqqa; tikkan, uqqan, tekkani, chiqqani, qishloqqacha, tekkuncha, boqquncha* va boshq.) ega, ammo bunday xususiyatlar barcha affikslar uchun xos emas. Xususan, jo‘nalishdan boshqa kelishik formalari palatal allomorflarga ega emas. Egalik, ko‘plik affikslari ham old va orqa qator variantlariga ega emas.

Bir qator yasovchi affikslarda ham palatal variantlilik kuzatilishi mumkin. Masalan, **-ik (kichik); -iq (qiliq); -ki (tepki, kechki); -qi (qichitqi); -kir (o‘tkir, keskir); -qir (topqir, chopqir); -kich (-gich) (suzgich, bilgich, ko‘rsatkich); -qich (bosqich, qisqich); -k (elak, bezak); -q (sanoq, taroq)** va boshq.

Ayrim ikki bo‘g‘inli so‘zlar tarkibida libial garmoniyaning ham qoldig‘i uchraydi: masalan, **ulug‘, buyuk, ulush, uchqun, turg‘un, guvur-guvur, yugur, bug‘u, tuyg‘u** va boshq.

Biroq singarmonizmning mazkur ikki ko‘rinishi ham hozirgi o‘zbek tili uchun qadimgi qonuniyatlarning izi, xolos. O‘zbek tilining ayrim shevalarida, masalan, Namangan shevasida singarmonizmning boshqacha ko‘rinishi – affikslarning o‘zak fonetik xususiyatiga moslashishi emas, balki o‘zak unlilarining affiks unlilari xarakteriga moslashishi, ya’ni oldiga emas, orqaga qarab moslashish kuzatiladi.

Bunday moslik umlaut hisoblanadi. Umlaut uyg‘ur tili va hozirgi o‘zbek

---

<sup>29</sup> Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. Фонетика. – С.439.



tilining Namangan<sup>30</sup> va Paxtaobod shevasiga xosdir. Umlautning uch ko‘rinishi – palatal, labial, lingvial turlari mavjud. Birinchi turda birinchi bo‘g‘inning orqa qator keng unlisi keyingi bo‘g‘indagi tor lablanmagan unli ta’sirida old qator unliga aylanadi. Masalan, Namangan shevasida **tosh** «tosh», **teshi** «toshi». Ikkinchi turda birinchi bo‘g‘inning keng lablanmagan unlisi keyingi bo‘g‘inning lablangan unilari ta’sirida lablashadi. Masalan, Paxtaobod shevasida **to‘mur** «temir», **qo‘shiq** «qoshiq» va boshq.

Uchinchi turda og‘izning ochilish darajasi o‘zgaradi. Keyingi bo‘g‘inning tor i unlisi ta’sirida birinchi bo‘g‘inning old qator keng unlisi o‘rta keng unliga aylanadi. Masalan, uyg‘ur tilida **kesish** (**kasish**); **u**, **o‘** ta’sirida **o**, **o** unilari ham torayishi mumkin. Masalan: **moshuk** – **mushuk**, **chonqur** – **chunqur** – **chuqur**).<sup>31</sup>

Umlaut barcha turkiy tillarda ma’lum darajada uchraydi. Umlaut singarmonizmga teskari proporsional bo‘lib, turkiy tillarda nisbatan keyingi hodisadir. Ayrim tilshunoslarning fikriga ko‘ra, umlaut assimilyatsiyaning keng rivojlanishi va o‘ziga xos urg‘u zaminida vujudga kelgan. Ye.D.Polivanov fikricha, umlautning kelib chiqishi singarmonizmning kuchsizlanishi bilan bog‘liq.<sup>32</sup>

A.M.Shcherbak esa assimilyatsiya jarayoni yo‘nalishining o‘zgaruvi natijasida yuzaga kegan bo‘lishi kerak deydi. Bunga morfologik elementlarning unifikatsiyasi qulay imkoniyat yaratgan.<sup>33</sup>

## **B. Kompozitsion so‘z yasalihi va analitik shakl yasalihi jarayonidagi almashinuvlar**

### **Aksent-ritmik tuzilishining o‘zgaruvi**

Kompozitsion so‘z yasalihi va funksional forma yasalihi jarayonida komponentlar leksik-grammatik va intonatsion bir butunlikni tashkil etadi. Komponentlarning bir butunligini ta’minlashga urg‘u, bir qator morfonologik jarayonlar: tovush almashinuvi, fonetik qayta bo‘linish kabi hodisalar xizmat qiladi.

Qo‘shma so‘z va so‘zning analitik formasi tarkibiga kirgan komponentlar bir umumiy birlashtiruvchi urg‘u ostida birlashadi. Bunday urg‘u ikkinchi komponentning oxirgi bo‘g‘inida bo‘ladi. Asosiy urg‘uli bo‘g‘indan oldingi bo‘g‘inlar ikkinchi va uchinchi darajali urg‘ularga ega.<sup>34</sup> Shunga muvofiq, asosiy urg‘uli bo‘g‘indan boshqa bo‘g‘inlarning barcha intonatsion gradatsiyasi – uning cho‘ziqligi, bunday bo‘g‘inlarni tashkil etuvchi unli va undoshlarning talaffuzi aniqligi va boshqalar ham o‘zgaradi. Masalan: **o‘ttiz** – **o‘ttiz ikki**, **kirib** – **kirib kel** va boshq.

<sup>30</sup> Каранг: Отамирзаева С. Звуковой состав наманганского говора узбекского языка. АКД. 1963.

<sup>31</sup> Щербак А.М. Сравнительная фонетика... – С.65.

<sup>32</sup> Поливанов Е.Д. Причины происхождения умлаута // Туркестанский вост. инст. – Ташкент, 1923. – Б.123.

<sup>33</sup> Щербак А.М. Сравнительная фонетика... – С.65.

<sup>34</sup> Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. – М.-Л., 1960. – С.52 – 56.

Qo'shma so'z va so'zning analitik formasi strukturasi bunday aksent-ritmik bir butunligi ularni tashkil etgan komponentlar o'rtasida turli xil morfonologik o'zgarishlarning yuz berishiga olib keladi.

1. Har ikki komponent yopiq bo'g'in bo'lganda komponentlar oralig'ida morfonologik o'zgarishlar yuz beradi:

n – m: o'n besh – o'm besh

b – v: bel bog' – belvo

ch – s: uch so'm – us so'm

b – o: bor bo'l – bor o'l (bor o'ling)

li – o: olib kel – opkel (Andijon)

q – p: ichib qo'y – ichipo'y (qoraqalpoq) va boshq.

n – m: o'n bir – o'm bir.

2. Birinchi komponent ochiq bo'g'in bilan tugab, ikkinchi komponent yopiq bo'g'in bilan boshlanganda:

b – v (ber – ver): bora berdi – boraverdi, yoza ber – yozaver, kela ber – kelaver va boshq.

(bil – vil): ne bilay – nevlay va boshq.

k – g (kun – gun): bu kun – bugun va boshq.

uy – o (shu – sh), -er: shu yer – sher (Jizzax)

1. Birinchi komponent yopiq bo'g'in bilan tugab, ikkinchi komponent ochiq bo'g'in bilan boshlanganda ham tovush almashinish, ham bo'g'inlar strukturasi fonetik qayta bo'linish hodisasi ro'y beradi. Bu esa komponentlar butunligini yanada kuchaytiradi:

e – i (emish – imish): kelar emish – kelarmish

i – o (imish – mish): borgan imish – borganmish

e – o (ekan – kan): kelar ekan – kelarkan

b – v (bosib – bosiv): bosib oldi – bos (i)voldi (qovun navi), Sotib oldi – Sot (i)voldi (atoqli ot) va boshq.

Fonetik qayta bo'linish:

Qayn ona – qay – no-na (qaynona) qayna

Qayn ota – qay – no-ta (qaynata)

Qayn ini – qay – ni-ni (qayni)

4. Birinchi komponent ochiq bo'g'in bilan tugab, ikkinchi komponent unli bilan boshlanganda ham tovush almashinuvi va fonetik qayta bo'linish yuz beradi:

ee – e: ne etay – netay

aa – a: Mirzaahmad – Mirzahmat, na aylay – naylay

a – o: katta ota – kattaata (katta), bora olmoq – borolmoq, beka oyim bekoyim

i – o: olti oziq – oltoziq (to'qqiz yoshli ot), yetti oziq – yettoziq (o'n yoshli ot), yoshi ulug' – yashulli (Xorazm), echki emar – echkemar va boshq.

a – o: Xo'ja eli – Xo'jeyli va boshq.

## Reduplikatsiya jarayonidagi almashinuvlar

Har qanday reduplikatsiyada umumiy (sementlovchi) urg'u birinchi komponentda bo'ladi. Ikkinchi darajali urg'u ikkinchi komponentning oxirgi bo'g'iniga tushadi.<sup>1</sup> Juft so'zlarning anchagina qismida komponentlardan biri ikkinchisining morfonologik o'zgarishiga uchragan varianti hisoblanadi.

### 1. Birinchi komponenti o'zgaradi

tun – s: bus-butun

tta – p: kap-katta

shil – m: yam-yashil

k – m: ko'm-ko'k

zil – p: qip-qizil

ra – p: qop-qora

q – p: oppoq (oppoq)

riq – p: sap-sariq va boshq.

### 2. Ikkinchi komponent o'zgaradi:

y – p: yog'och-pog'och, yilt-pilt

m – s: mol-sol, mot-sot, temir-semir

m – p: mol-pol, mosh-posh

y – m: yo'riq-mo'riq

t – m: tugun-mugun

k – m: keshik-meshik

t – p: temir-pemir va boshq.

Ko'rinib turibdiki, reduplikatsiya jarayonida almashinuvchi allofon sifatida faqat chegaralangan tovushlar qatnashadi. Ular ko'proq **m**, **p**, **s** allofonlari hisoblanadi. Bu sanoqli allofonlar son-sanoqsiz tovush yoki tovush kompleksi o'rnida kela oladi. Shuning uchun reduplikatsiya modelini hosil qiladi.

Yuqorida bayon etilganlardan shu narsa anglashiladiki, faqat forfemalar qurshovidagi tovush almashinuvlar, ya'ni bir umumiy morfemaning turli allofonlarini yuzaga chiqarishga xizmat qiluvchi almashinuvlarga morfonologiyaning o'rganish ob'ekti bo'ladi.

---

<sup>1</sup> Грамматика современного башкирдского литературного языка. – М., 1981. – С.86.

## O`ZBEK SUBSTANSIAL TILSHUNOSLIGIDA TIL VA NUTQ MUNOSABATI

O`q ildizi o`rta asr arab tilshunosligida keng o`rganilgan paradigmalarga borib taqaladigan, Yevropa tilshunosligida dastlab V.Gumboldt tomondan ilgari surilgan, lekin F.Sossur va uning izdoshlari (jumladan, Praga lingvistik to`garagi) asarlari orqali ommalashgan *til - nutq* dixotomiyasi funksional lingvistik tadqiq usuliga (Praga strukturalizmiga) dialektik tahlil tamoyillarining ongli va izchil tatbiqi samarasi bo`lgan o`zbek substansial (formal-funksional) tilshunosligida /1: / bir muncha boshqacha talqinga ega. Bunda *Lison-Me`yor-Nutq* munosabati dialektik **umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab (UMIS)**ning ma`lum bir sharoitga - nutq sharoitiga (*NSh*) - mos ravishda muayyan moddiy shakl qabul qilgan holda **yakkalik, hodisa, voqelik, oqibat (YAHVO)** sifatida voqelanishi qonuniyatlari asosida sharhlanadi. Bunda *lison va lisoniy birliklar* UMIS, *nutq va nitqiy birliklar* YAHVO dialektik tabiatiga ega bo`ladi va shu nuqtayi nazardan turib tavsif va tahlil etiladi.

**Til** *lison, me`yor va nutqning* dialektik butunligi (majmuasi) bo`lib, uning bosh ichki ziddiyati unda atash (nominativ) va ifodalash (ekspressiv) vazifalarning dialektik birligidadir. Atash vazifasi ramziy tizim umumiy qonunlariga mos ravishda shakl va mazmun simmetriyasini talab qilsa, ifoda vazifasi, aks hodisani talab qilib, tilning nisbatan barqaror, lekin ayni zamonda rivojlanuvchan, moslashuvchan, xilma-xil me`yorliligini (har bir voqelanish sohasining o`z me`yorlariga molikligini) talab qiladi.

**Lison** UMIS tabiatli lisoniy birliklarning serqirra, ko`pqavatli sathlaridan tashkil topgan barqaror, tashqi muhit ta`siriga o`ta sezgir, o`zgarish, rivojlanish va moslashish immanent qobiliyatini o`z ichida mujassamlashtirgan murakkab qurilishli iyerarxik sistemadir. Uning **barqarorligi** asosi

-sathlar ichida lisoniy birliklarning uzluksiz nisbiy markaz-qurshov giponimik pog`onaviylik aloqalar bilan bog`lanishida,

-sathlardagi har bir pog`ona doirasida birliklarning o`zaro biror oppozitiv munosabatlarda turishida va nisbiy butunliklarga birikishida bo`lsa,

bu sistemaning immanent **o`zgaruvchanligi**

- lisoniy birlikda shakl va mazmun asimmetriyasi,

-uzluksiz nisbiy markaz-qurshov giponimik pog`onaviylik bosqichlari sonining va

-har bir bosqichda qurshov birliklari miqdorlarining nisbiy erkinligi,

-ko`p qavatli pog`onalarning har birida har bir lisoniy birlikning o`z pog`onadoshlari bilan ko`ptomonli zidlanishi va bir necha mikrosistemalarga aloqadorligi bilan ta`minlanadi.

**Me`yor** (NSh) lisonga, uning ichki qurilish tizimiga nisbatan tashqi omil bo`lib, lisoniy imkoniyatlardan (-sinonimik qatorlardan, lisoniy birliklarning dublet, allovariant va variantlari, sohaviy birliklaridan v.h.) har birining voqelanish o`rinlari va xususiyatlarini belgilaydi. Me`yor

- *lisoniy an`ana* bilan ham,

- sof *nolisoniy* (g`ayrilisoniy), jumladan:

- xilma-xil uslublar, tilning qo`llanilish sohalari va lisonning voqelanish usullari (badiiylik va kuchli ta`sirchanlik, yorqin ifodaviylik, obrazli tafakkur yoki aniqlik, ixchamlik, serinformativlik talablari v.h.) bilan ham,

-ijtimoiy shart-sharoit, qonun-qoida, rasm-rusumlar, til siyosati bilan ham,

-nutq jarayoni ishtirokchilarining diniy, madaniy, tabaqaviy, irqiy, milliy, hududiy, jinsiy, ruhiy, yosh v. b. xususiyatlari bilan ham,

-lison voqelanayotgan soha, hayotiy jabha talab va xususiyatlari bilan ham,

- lison voqelanishining bevosita nolisoniy shart-sharoitlari bilan ham belgilanishi mumkin.

Me`yorga ta`sir etadigan omillar juda ko`p va rang-barang bo`lib, tilshunoslikning maxsus tarmog`i - sotsiolingvistikaning markaziy tadqiq manbalaridan biridir.

**Nutq** lisonning me`yor elagidan o`tgan muayyan (yozma, og`zaki, tasviriy /imo-ishora, signal v.h./ shakllaridan birida) voqelanishidir.

*Lison* ham, *nutq* ham qurilish va voqelanish tamoyillariga ko`ra birlamchi ijtimoiy-ruhiy ramziy tizim (semiotik sistema), *me`yor* uning voqelanish sharoiti bo`lib, bevosita ramziy tizimga aloqador emas.

Lisoniy sathlar izchil giponimik munosabatli iyerarxik qurilishga ega bo`lgani holda lisonning o`zi uni tashkil etuvchi sathlari bilan iyerarxik gipo-giperonimik munosabatlar bilan emas, balki dialektik butun-bo`lak aloqalari bilan bog`lanadi /2:/. Bunda lison - butun, sathlar - bo`lak mavqeyida bo`ladi.

Bugun kundan-kunga ulg`aya borayotgan va milliy-ma`naviy istiqloq mevasi sifatida ommalashayotgan o`zbek substansial (formal-funksional) tilshunosligida til qurilishi va yashashi tahlilining bosh masalalaridan biri mana shunday tushuniladi va shu nuqtayi nazardan turib har bir bosqich birliklarining umumiy mohiyati, unga tayanib har sath birligi tabiati ochiladi, o`zbek tili qurilishining tavsifi beriladi.

### ADABIYOTLAR

1. *O`zbek tilshunosligida bu yo`nalish haqida qar.:* Љурбонова М.М. Ўзбек тилшунослигида формал-функционал йўналиши ва содда гап ўрулишининг таллини. ДДА. Т.: ТАИ. 2001; *Yana qar.:* Менглиев Б.Р. Лисоний тизим яхлитлиги ва унда сатклараро муносабатлар. ДДА. Т. ТАИ.2002; Љурбонова М.М. Шозирги замон ўзбек тили. Гап синтаксиси учун материаллар. Тошкент. Университет. 2002; *Nimat G. Hamid. O`zbek tilini struktural tadqiqi. "3.Uluslararası türk dil kurultayı. Türk dil kurumu yayinlari '678. Ankara.2000. S.787-793;*
2. *Нигматова Л.К. Ўзбек тилида привативлик (нофонологик сатклар). НДА. Т.: ТАИ. 2004.*

### **Dialektik kategoriyalar va tilshunoslik**

1. Borliqdagi barcha narsa va hodisalar o'zaro aloqadadir. Ular bir-biriga ta'sir va aksta'sir qilib turadi. Tabiat va jamiyatdagi hech bir narsa va hodisa boshqalardan ajralgan holda mavjud bo'lmaydi. Lekin biz olamni bilish jarayonimizda uni tashkil etgan o'zaro munosabatdagi alohida narsa va hodisalarni umumiy bog'lanishlardan ajratamiz. Bu jarayonda uning o'ziga xos tomonlari va xususiyatlarini ochib berish maqsadida bu narsa va hodisalarning boshqa narsa va hodisalar bilan bog'langan barcha aloqa va bog'lanishlarini, hamma aloqadorliklarini bilib boramiz. Narsa va hodisalarni ilmiy bilish uchun uning barcha tomonlarini, barcha aloqa va bog'lanishlarini birga olib o'rganish lozim bo'ladi. Lekin bunga hech qachon to'la erishib bo'lmasa ham, ularni munosabatlarda namoyon bo'ladigan xususiyatlar majmuasi sifatida izohlashning o'zi narsa va hodisalarni bilishda turli xatoliklardan saqlab qoladi. Dialektikada narsa va hodisalar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikning xilma-xil ko'rinishlari mavjudki, bunday aloqadorliklar til birliklari uchun ham xosdir.

2. Alohidalik, xususiylik va umumiylik borliqdagi narsa va hodisalarning har qaysisiga xos alohida, ma'lum guruhiga doyr maxsus va hammasiga xos umumiy tomonlari, xususiyatlari va ular o'rtasidagi bog'lanish larni ifodalaydi. Bevosita kuzatishda berilgan alohida narsa va hodisalardan farqlaydigan belgi va xususiyatlar birligi alohidalik sanaladi. Bilish jarayoni alohidaliklarni o'rganishdan boshlanadi. Alohidaliklarning o'zlariga xos belgi va xususiyatlarini bir-biriga solishtirish orqali umumiylik hosil qilinadi. Bu turdagi bir qancha narsa va hodisalarga xos bo'lgan o'zaro o'xshash, ularning har birida takrorlanuvchi belgi va xususiyatlar birligi umumiylik hisoblanadi. Alohidalik bilan umumiylik o'rtasida xususiylik kategoriyasi ham mavjud. Xususiylik kategoriyasi narsa va hodisalardagi alohidalik va umumiylik o'rtasidagi alohidalikka nisbatan umumiy, umumiylikka nisbatan alohida bo'lgan belgi va xususiyatlar va aloqadorliklarni ifodalaydi. Dialektikadagi aloqadorlikning bunday bo'linishi shakliy (formal) mantiqsagi uchinchi istisno qonunini inkor etadi. Bu bilan har qanday narsa va hodisalarning tarixiy taraqqiyotida oraliq holat bo'lishi mumkinligini tasdiqlaydi. Alohidalik, xususiylik, umumiylik o'zaro dialektik munosabatdadir. Ularning bir-birisiz bo'lishi mumkin emas. Alohidalik bilan umumiylik xususiylik orqali bog'lanadi. Xususiylik alohidaliklardan tashkil topadi va ayni paytda, umumiylikni alohidalik bilan bog'laydi. Umumiylik esa alohidalikdan ajralgan holda bo'lmaydi. U har bir alohidalikda uning umumiy xususiyatlari, belgilari, bog'lanishlari shaklida mavjud bo'ladi. Bundan ko'rinadiki, bizning sezgi a'zolarimizga beriladigan har bir alohida narsa va hodisalar alohidalik, xususiylik va umumiylik birligidan iborat. Alohidalik, xususiylik va umumiyliklarning o'zaro bog'lanishlarini dialektik nuqtai nazardan tushunish obyektiv olamni to'g'ri bilish uchun katta ahamiyatga ega. Shuni ta'kidlash kerakki, dialektikada oraliq holatni e'tirof etish narsa va hodisalarni doimiy o'zgarishda, rivojlanishda o'rganish imkonini beradi. Bu nuqtai nazardan alohidalik, xususiylik, umumiylik dialektikasida bir-biriga o'tish holatlari bo'lishi mumkin. Ma'lum sharoitda alohidalik xususiylikka, xususiylik esa umumiylikka va aksincha, ular bir-biriga o'tishi mumkin. Bu esa tarixiy taraqqiyot, dinamika jarayonini ko'rsatadi. Dialektikadagi bu kategoriya tilda ham o'z ifodasini topadi. Til birliklaridagi alohidalik, xususiylik va umumiyliklar o'rtasidagi aloqa va bog'lanishlarni tilshunoslikda ilk bor dialektik mantiq tamoyillari asosida ish olib borgan S.N. Ivanov ochib berdi. Uning ta'kidlashicha, u yoki bu xilma-xillik moxi-yatini bilish shu xilma-xillikning umumiy asosini bilishga olib keladi. Amaliy bilishda bir-biridan ajralgan, bir-biridan uzoq, bo'lib ko'ringan hodisalar mohiyatini bilish konkretlikdan mavhumlikka tamoyili asosida ma'lum obyekt haqida ilmiy tushuncha shakllantirish haqidagi dialektik mantiqning mag'zini tashkil etadi. Dialektik mantiq alohidalik bilan munosabatda bo'lgan umumiylikka sistema sifatida qaradi va alohidaliklar shu sistema doirasida funksiyalashadi, deb hisoblaydi. Agar alohida narsalar zamirida yashiringan mohiyat shu alohida elementlar munosabatlaridan tashkil topgan ma'lum sistema sanalar ekan, u vaqtda mohiyatni izohlash uchun ana shu sistemani tavsiflash, uning tarkibidagi alohidaliklarni o'rganishdan boshlash kerak bo'ladi. Masalan, ma'lum kelishikning barcha ma'no nozikliklari va ular o'rtasidagi munosabatlarni kuzatdik. Bu vaqtda alohida ma'noning ma'lum sistemadagi xilma-xilligi haqida tasavvurga ega bo'lamiz.

Lekin bu holatda ma'noni oddiy sanash bo'ladi, xolos. To'g'rirog'i, kelishik morfologik jihatdan ko'ra sintaktik funksiyasi jihatdan aniqlangan bo'ladi. Bunday halqadan qanday chiqib ketish yo'lini S.N.Ivanov dialektik mantiqdan qidiradi. Ma'lum murakkab sistema haqidagi tushunchani u haqidagi tasavvurga aylantirish lozim. Buning uchun muayyan munosabatlar sistemasi mohiyatini tushuntirish kerak bo'ladi. Agar uni kelishik misolida ko'radigan bo'lsak, grammatik shaklning alohida ma'nolar sistemasi mohiyatini shu guruh hodisalarning umumiy asosi sifatida tushuntirish lozim. Muayyan mohiyatning alohida ko'rinishlarining umumiy asosi bu mohiyat o'zida o'zi bo'lgan yagona, muayyan munosabatlardir. Predmetni aniqlash, demak, uni boshqalardan chegaralash, boshqalardan nimasi bilan farq qilishini belgilash, uning o'z-o'ziga va ayni paytda, boshqa predmetlarga munosabatini aniqlashdir. Predmet, hodisalarni umumiy aloqada, boshqa predmet, hodisalarga nisbatan munosabatlarda qarash lozim degan dialektik talab bu predmet o'ziga o'zi qanday mansubligi haqidagi konkret bilimga olib kelishi kerak. Bundam umumiy aloqani o'rganishning konkret to'liqligi aloqalardan tashqaridagi predmetni bilishga olib keladi. To'g'rirog'i, bu o'rindagi aloqalar ichkariga, predmetning o'ziga yo'nalgan bo'ladi. Bu esa shu predmetning substansiyasini, mohiyatini, o'ziga o'zining ayniyatligini bilishimiz bo'ladi. Shuning uchun ham morfologiya grammatik kategoriya va shakllarning substansional ma'nosi haqidagi fan bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi. Yuqoridagilardan ko'rinadiki, bilish jarayoni alohidalikdan boshlanadi. Biz dastlab sezgi a'zolarimiz yordamida alohidalikni, yakka narsa va hodisalarni, masalan, jo'nalish kelishigining turli shakli va mazmuniy variantini fahm qilamiz. (xususan, -ga, -ka, -qa, -g'a, -a kabi) So'ngra tafakkurimizda shu hissiy fahmlashdan vujudga kelgan mavjud faktlarni analiz va sintez qilib, ularning muhim tomonlarini nomuhim tomonlardan, umumiy tomonlarini alohida tomonlaridan ajratamiz. Ularni o'zaro bir-biri bilan birlashtiramiz, bir-biriga taqqoslaymiz, shular asosida fikrimizda ularni ifodalovchi tushunchani hosil qilamiz. Bu hosil qilingan tushunchada narsa va hodisaning, yuqoridagi holatda jo'nalish kelishigining ham yakka tomonlari, ham ularning muayyan turga ya'ni kelishikka xos bo'lgan tomonlari hamda shu narsa va hodisalarning butun bir sinfiga, ya'ni so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarga oid bo'lgan umumiy tomonlari ifodalanadi.

3. Borliqdagi narsa va hodisalar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik, bog'lanishlardan biri mohiyat va hodisadir. Mohiyat narsa va hodisalarning ichki, eng muhim o'zaro bog'lanishlari, shu bog'lanishlarning qonuniy aloqadorliklarini tashkil etuvchi tomonlar, xususiyatlar va bog'lanishlarning namoyon bo'lish shakli, mohiyatning ifodalanishi sanaladi. Biz obyektiv borliqda bevosita hodisalarni ko'ramiz. Ularni sezgi a'zolarimiz orqali his qilamiz. Mohiyat obyektiv olamdagi narsa va hodisalarning o'zaro bog'lanishlari, aloqadorliklarini ifodalaganliklari uchun uni bevosita jonli kuzatishda ko'rish, ushlab mumkin emas. U narsa va hodisalarning muhim belgisi sifatida bu narsa va hodisalarning o'zaro munosabatlarini o'rganish, chuqur tahlil qilish orqali idrok qilinadi. Masalan, bevosita kuzatishda turli xil jonli organizmlarni ko'ramiz. Ularni bir-biriga solishtirish, chuqur tahlil qilish asosida ularning hammasi uchun umumiy bo'lgan muhim belgini aniqlaymiz. Bu belgi barcha tirik organizmlar uchun xos bo'lib, ularning har birida takrorlanishi kerak. Ana shu muhim belgi modaa almashinuv belgisidir. Demak, konkret turli ko'rinishdagi jonli organizmlar hodisalar bo'lsa, ularning hammasi uchun umumiy bo'lgan mohiyat modda almashinuvidir. Mohiyat bilan hodisa o'zaro zich bog'liq bo'lishi bilan birga, bir-biri bilan qarama-qarshi xususiyatga ham ega. Ularning qarama-qarshiligi borliqdagi narsa va hodisalarning o'z tabiatidan kelib chiqadi. Mohiyat hodisada yashirin bo'ladi va uni bevosita sezgi a'zolar orqali bilish mumkin emas. hodisa narsalarning namoyon bo'lishi shakllaridir. Ular hech qachon miqdor jihatdan bir-biriga mos kelmaydi. Agar narsalarning namoyon bo'lish shakllari bo'lgan hodisalar bilan mohiyat o'zaro mos kelganda edi, har qanday fan ortiqcha bo'lib qolar edi. Har qanday fanning vazifasi hodisalar zamirida yashirinib yotgan, ularning asosini tashkil qiladigan mohiyatini aniqlashdan iboratdir. Ana shundan kelib chiqqan holda, tilshunoslik fanida ham tilshunosning vazifasi sezgi a'zolarimiz yordamida his qiladigan nutq birliklari zamirida yotgan umumiy asos, mohiyatni topishdan iborat bo'lishi kerak. Tilshunoslikda tildagi ana shunday mohiyat-hodisa zidlanishi til-nutq dixotomiyasi orqali ifodalana-nadi. Nutq birliklari atamasi hodisalarni ifodalasa, til birliklari

bevosita sezgi a'zolarimiz orqali his qiladigan nutq birliklari zamirida yashiringan mohiyatni ifodalaydi. **Til birliklari -ema bilan tugaydigan (fonema, morfema, leksema kabi) atamalar orqali ifodalanadi.** Bu atamalar bilan ifodalangan birliklarni biz hech qachon sezgi a'zolarimiz yordamida his etmaymiz. Ya'ni uni talaffuz qilmaymiz va eshitmaymiz. har qanday til birliklari bevosita kuzatishda bir qancha nutq birliklari orqali moddiy ifodasini topadi. Ana shunday konkret moddiy ifodalar variantlar sanaladi: fonema varianti, morfema variyati, leksema varianti kabi. Ularni Amerika tilshunoslari allofon, fon; allomorf, morf; allolek, leke atamalari bilan ham yuritadilar. Tildagi yuqoridagidek zidlanishni ayrim tilshunoslar emik va etik birliklar atfmalari orqali ham ifodalaydilar. **Emik birliklar -ema bilan tugagan atamalar (fonema, morfema, leksema kabi) orqali ifodalangan birliklarni o`z ichiga olsa, etik birliklar variant yoki allo- bilan boshlangan (allofon, allomorf, alloleks) atamalar orqali ifodalangan birliklarni o`z ichiga oladi.**

4. Borliqdagi narsa va hodisalar o`rtasidagi aloqadorlikning yana bir turi butun va bo`lak munosabatidir. Butun o`zaro dialektik aloqadorlikda bo`lgan qismlar, bo`laklarning uzviy birligidan iborat yaxlitlikdir. Bo`lak esa shu butunni tashkil qilgan, uning tarkibidagi ma'lum element, qism sanaladi. Borliqdagi har bir narsa va hodisalar, jarayonlar ana shu butun va bo`lakning dialektik birligidan iboratdir. Bu shuni ko`rsatadiki, olamdagi har bir narsa va hodisa, katta-kichikligidan qat'iy nazar, ichki bo`linish xususiyatiga ega. Bunday bo`linish pogonali harakterga ega. Katta butunlikning tarkibiy qismlari bo`lgan, katta butunlik uchun bo`lak vazifasini bajaruvchi qism, o`z navbatida, keyingi bo`linish uchun butun bo`lib keladi. Bunday butun bo`lak asosida bo`linish bo`linishning oxirgi nuqtasigacha davom etadi. Agar buni til materiallari asosida ko`rib chiqsak, gap butunlik sifatida gap bo`laklariga, gap bo`laklari so`z shakllariga, so`z shakllari morf (allomorf)larga, morflar esa fonlarga, (allo) fon esa akustik va fiziologik xossalarga bo`linadi. Bo`linishning har bir bosqichi butun-bo`lak dialektikasini o`zida namoyon qiladi. Shuningdek, lisoniy birliklarning har qaysisi (fonemadan tashqari) mazmuniy jihatidan ham muayyan ma'no elementlarining o`zaro munosabatlaridan tashkil topgan yaxlitlik sanaladi. Masalan, ma'noli birliklar ichida eng kichigi hisoblangan morfema ham ikki va undan ortiq semalarning o`zaro munosabatidan tashkil topgan butunlik hisoblanadi. Ma'noli birlik bo`lmagan va shakl jihatdan eng kichik birlik sanaluvchi fonema ham xuddi atom kabi bo`linuvchanlik xususiyatiga ega. Uning tarkibiy qismlari farqlovchi belgilar sanaladi. Shuning uchun fonema differensial belgilar majmuasi sifatida baqolanadi. Mashhur daniyalik tilshunos L. Yelmslev butun-bo`lak munosabatini til birliklarining ham shakl va ham mazmun tomoni misolida izchil yoritib berdi. Shakl (ifoda) tomonini tekst-period-gap-so`z bo`g`in-fonemalarga bo`lgan bo`lsa, mazmun tomoniga ham bunday bo`linishni qo`llagan holda, uning eng kichik birligi sifatida figurani ajratadi. L.Yelmslevning figura tushunchasini tilshunoslikka olib kirishi glossematika nazariyasining F.de Sossyur nazariyasidan bir qadar farq qilishini ko`rsatadi. Sossyur har qanday lingvistik belgi ifodalovchi va ifodalanmishning dialektik birligidan iborat, deb hisoblagan bo`lsa, L.Yelmslev ifodalanmish tomonini yana bo`lishda davom etadi. Uning fikricha, lingvistik birliklarning mazmun planida lingvistik belgidan tashqari belgi bo`lmagan elementlarni ham ajratish mumkin. Belgilar sistemasiga belgining tarkibiy qismi sifatida kiruvchi ana shunday belgi bo`lmaganlar figuralar hisoblanadi. Til shunday tuzilganki, bir sikim figuralar yordamida va ularning turli xil joylashuvi tufayli belgilar legionini qurish mumkin. L.Yelmslev ajratgan figuralar elementar ma'noga, semaga to`g`ri keladi. Semalar kombinasiyasi belgi mazmunini tashkil qiladi. Masalan, o`qil belgisi quyidagi figuralardan tashkil topadi: [inson] + [yosh] + [erkak]. Oxirgi figuraning o`zgarishi esa qiz belgisini bildiradi. Bundan ko`rinadiki, butun-bo`lak munosabati asosida lingvistikada uzviy (komponent) tahlil metodi maydonga keldi. Shuni ta'kidlash kerakki, butun tarkibidagi har bir kiem butunning o`ziga xos tomonini ma'lum darajada ifodalaydi. Lekin butunni tashkil qilgan bu qismlar butun tarkibida har biri alohida-alohida emas, balki butunning bo`laklari sifatida ko`rinadi.

5. Olamdagi narsa va hodisalar o`rtasidagi aloqa-dorlik, bog`lanishning turlaridan yana biri shakl va mazmun dialektikasidir. Shaklsiz mazmun bo`lmaganidek, shaklning mavjudligi usuli, strukturasi, tuzilishi ham mazmunsiz bo`lmaydi. Ko`rinadiki, shakl va mazmun ma'lum bir narsa

yoki hodisaning o'zaro dialektik aloqador bo'lgan ikki tomonidir. Bu dialektik aloqadorlik tilda ham yorqin o'z ifodasini topadi. Til birliklari ham shakl va mazmun birligidan iborat. Faqat bundan fonologik sath birliklari mustasno. Chunki fonologik birliklar bir tomonlama mohiyat bo'lib, faqat shaklga ega. Shakl va mazmun o'zaro bog'liq bo'lsa ham, lekin ular bir narsaning ikki tomoni bo'lganligidan, har qaysisi o'ziga xos xususiyatga ham ega. Ularning o'ziga xosligi shundaki, har qaysisi alohida-alohida strukturaga ega. Bu struktur elementlar bir-biriga muvofiq kelishi shart emas. Lisoniy birliklar o'rtasidagi shakl va mazmun munosabatini quyidagicha ko'rsatish mumkin:


- 1)  $M=Sh$
- 2)  $M>Sh$
- 3)  $M<Sh$

Yuqoridagilardan birinchisida mazmuniy tuzilish bilan shakliy tuzilish o'rtasida muvofiqlik bor.

Ikkinchi holatda bir necha ma'no bir shaklga ega (omonimiya). Uchinchi holatda esa bir ma'no bir necha shakl orqali ifodalanadi (sinonimiya). Keyingi har ikki holatda ham shakl va ma'no o'rtasida nomuvofiqlik mavjud bo'ladi.


**v. Grammatik ma'no va grammatik shakl.**

1. Grammatik ma'no leksik ma'no kabi predmetga xos bo'lgan belgi, xususiyat, munosabatlarning ongda aks etishidir. Bu esa leksik ma'noga qo'llanilgan semantiq uchburchak grammatik ma'no uchun ham umumiy ekanligini ko'rsatadi.



Ya'ni predmet - unga xos bo'lgan belgi, xususiyat-ning ongda aks etishi - ongda aks etgan belgi, xususi-yatning ma'lum moddiy vositalar - grammatik shakllar yordamida ifodalanishi.

So'z semantiq strukturasi uchburchak shaklida ko'rsatish an'anasi mavjud<sup>35</sup>. Semantiq uchburchak denotat – obyektiv borliqdagi referent, signifikat – ma'no va eksponent – fonetik so'zni qamrab oladi. Adabiyotlarda bu uchlik quyidagicha sxemalashtiriladi:



Har qanday sxema - model singari bu chizma ham voqea mohiyatini to'liq aks ettiradi, deb bo'lmaydi, albatta. Uchburchak tarzida ushbu qismlarni joylashtirish ularning munosabatlari


<sup>35</sup> Qarang: Stepanov Yu.S. Osnovi obshego yazikoznaniya. – M.: Prosvesheniye, 1987. –C. 8-9; Ne'matov H.G', Rasulov R. Ko'rsatilgan asar.



tizimida ham o`ziga xos yo`nalishlar belgilab beradi. Masalan:

Eksponent ← Denotat → Signifikat  
Denotat ← Eksponent → Signifikat  
Denotat ← Signifikat → Eksponent va h.k.


Aslida bu bog`lanishni uchburchak emas, burchak shaklida berish voqea mohiyatiga ko`proq mos keladi.



Shuningdek, bu xil chizmada chiziqlar yo`nalishi bilan birga burchakning gradusi - ochilishi darajasi ham muhimdir. Agar so`z mohiyatida tovush ramziyligi kuchli bo`lsa, burchak torayib, aksi bo`lsa, kengayib boradi, ya`ni turli so`zlarda denotat va eksponent orasidagi masofa turlicha bo`ladi. Burchak gradusi kengayib borishi bilan denotat va eksponent bir-biriga mutanosibligini, to`g`rirog`i, bu mutanosiblikni topish imkonini yo`qota boradi. Hozirgi til nuqtai nazaridan, juda ko`p so`zlar uchun burchak kengligi 1800 ga teng:

*Denotat* -----> *Signifikat*-----> *Eksponent*

Buni tovushiy ramzlar misolida ham ko`rish mumkin. Tarixiy taraqqiyot davrida tovushiy ramzlar tobora o`z burchaklarini kengaytirib borgan, deb faraz qilish mumkin. Taqlid va undovlarni boshqa so`zlardan farqlab turuvchi jihat shuki, ularda bu burchak juda kichik bo`ladi, ya`ni denotat va eksponent maksimal yaqinlashadi:



Biroq qo`shilib ketmaydi, albatta. Shuning uchun ham turli tillarda turlicha onomatoplar yuzaga keladi, ammo baribir ular bir-biriga juda o`xshaydi. Undovlarda ham shuni kuzatish mumkin, turli xalq vakillari bir xil his-tuyg`uni o`xshash (biroq aynan emas) birliklar bilan ifodalaydi.

Bunda moddiy vosita bilan ongda aks etgan predmet xususiyati munosabati grammatik ma`no sanaladi. Grammatik ma`no tabiatini son grammatik ma`nosi orqali tushuntirishga harakat qilamiz. Grammatik ma`nosi birlik va ko`plik ma`nolari munosabatini o`z ichiga oladi. Birlik ma`nosi bir, takrorlanmas predmetnigina emas (*a* yoki *a* va boshqalar), balki butun predmetlar sinfini ham ifodalaydi (*a*, *a*, ... *a*). qiyoslang: Bu ko`zoynak juda ravshan ko`rsatar ekan; Ro`paradagi magazinda ko`zoynak sotiladi. Bu gaplarning birinchisida ko`zoynak alohida bitta predyaetni (*A* birlik, *A* birlik), ikkinchi gapda esa barcha ko`zoynaqlarni, ko`zoynaqlar sinfini (*A* birlik) eiddiradi. Ko`zoynak leksema sifatsha leksik ma`noni ifodalaydi. Uning leksik ma`nosi borliqdagi ko`rish uchun yordamchi vosita sifatida ishlatiladigan optik vosita. Shu bilan birga ko`zoynak so`zshakli hamdir. So`z shakli sifatida bir qancha grammatik ma`nolarga ega. Birinchidan u ko`zoynak predmetining miqdoriy belgisini bildiradi: bitta yoki bir turlagi predmetlar sinfini ifodalaydi. Bu belgisi univg grammatik son ma`nosi sanaladi. Birlik sonning alohida va umumiy ma`nolari o`zaro dialektik bog`langan. Ksntekstda qo`llanilgan har qaysi alohida ma`no umumiy ma`noning bir qismi, bir tomonini ifodalaydi. Umumiy ma`no esa u yoki

bu darajada alohida ma'nolarii o`zida birlashtiradi. Shuning uchun ham ko`zoynak so`zining tovush kompleksi kontekstga qarab konkret predmetni ham, predmetlar sinfini ham ifodalashi mumkin. Grammatik ma'no tilda o`zining doimiy ifodasiga ega bo`lgan, sintaktik qurilma, so`z shakllar qatoriga xos bo`lgan umumlashgan ma'nodir. Morfologiya doirasida so`z turkumlariga xos bo`lgan (masalan, otlarda "predmetlik", fe'llarda "jarayonlik" ma'nolari) umumiy ma'no shuningdek, ma'lum morfologik kategoriya ichidagi o`zaro zidlanuvchi so`z shakllarining xususiy ma'nolari (zamon, shaxs, kelishik) ana shunday umumlashgan ma'nolar sirasiga kiradi. Grammatik ma'no deganda faqat so`zning shakllari ma'nosigina emas, balki sintaktik birliklarning umumlashgan ma'nolari ham tushuniladi. Masalan, predikativlik, modallik, temarema tuzilishi va boshq. Grammatik ma'no sistemasida obyektiv borliqdagi predmetlar o`rtasidagi munosabatlar haqidagi bilimimiz ong orqali aks etadi. Jumladan, harakat tushunchasi fe'lning umumiy ma'nosi va uning xususiy kategorial ma'nolari (zamon, nisbat, bo`lishli, bo`lishsizlik) orqali namoyon bo`ladi. Grammatik ma'no tildan tashqaridagi borliq predmetlar, hodisalar xususiyatlarini aks ettiruvchi no-sintaktik (referensial), masalan, miqdor, makon, zamon ma'nolari, shuningdek, gap va so`z birikmasi tarkibidagi so`z shakllarining aloqasini bildiruvchi sintaktik (relyasion) ma'nolarga bo`linadi. Masalan, bog`lovchili qurilmalardagi zidlovchilik, ayiruvchilik ma'nolari va boshq. Bundan tashqari, so`zlovchining fikr bildirayotgan voqea-hodisaga, yoki tinglovchiga bo`lgan turli xil subyektiv munosabatini aks ettiruvchi ma'no alohida xususiyatga ega. Masalan, subyektiv modallik, subyektiv baho, erkalash va boshq.

Shunday qilib, grammatik ma'noni uch guruhga bo`lish mumkin:

- 1) nosintaktik (referensial)
- 2) sintaktik (relyasion)
- 3) subyektiv

Birinchi ma'noni turkumlovchi, ikkinchi ma'noni toifaviy (kategorial), uchinchi ma'noni esa notoifaviy (nokategorial) ma'nolar deb ham tasniflash mumkin.

2. Grammatik ma'no sistema sifatida morfologik ma'no va sintaktik ma'nolarni o`z ichiga oladi. Shunday ekan, u bo`linuvchanlik xususiyatiga ega. Shunga muvofiq ularni morfologik ma'no va sintaktik ma'nolarga bo`lish mumkin bo`ladi. Morfologiya morfologik shakllarning morfologik ma'nosi va sintaktik imkoniyatlarini o`rganladi.

### **Grammatik shakl**

1. Grammatik shakl muayyan grammatik ma'noning tashqi ifodalanish tomoni - moddiy tomonidir. Grammatik shakl bilan grammatik ma'no falsafadagi shakl va mazmun dialektikasini o`zida namoyon qiladi. Shakl va mazmun bir yaxlitlikning ikki tomoni - biri tashqi, ikkinchisi esa ichki tomoni sanaladi. Shuning uchun ular bir-birini taqozo qiladi. Birisiz ikkinchisining bo`lishi mumkin emas.

2. Tilshunoslik tarixida grammatik shakl tushunchasiga turli xil yondashuvlar kuzatiladi. Bu xilma-xillikning ta'sirini bugungi grammatikaga doir tadqiqotlarda ham payqash qiyin emas. Xususan u "grammatik kategoriyaning tashqi lisoniy vositalar bilan ifodalanishi", "ayrim grammatik ma'noni ifodalovchi formal belgi", "ma'lum grammatik ma'no ifodalovchi shakl" sifatida tavsiflanadi. Grammatik shakl atamasi deyarli barcha tilshunoslar tomonidan so`z shakliga nisbatan qo`llaniladi. So`zning grammatik shakli masalasi nazariy grammatikaning eng murakkab masalalaridandir. Ko`p qollarda so`zning grammatik shakli "muayyan tovush ifodasi" sifatida izohlandi. Agar tovush ifodasiga ega bo`lmasa, u grammatik shakl doirasiga kiritilmadi. Bunga asos qilib, ma'lum bir ma'no o`z tashqi ifodasiga ega bo`lmasa, u til faktiga aylanmaydi, degan fikrga tayandilar.

3. Grammatik shaklga bunday qarash, ayniqsa, Moskva formal lingvistik maktabining asoschisi F.F.Fortunatov konsepsiyasining asosi bo`ldi. F.F.Fortunatov qarashlarining ildizi aslida N.P.Nekrasovga borib taqaladi. N.P.Nekrasovning fikriga ko`ra, so`zning doimo o`zgarishini ta'minlab turadigan tovush ifodasi qismi uning grammatik shakli hisoblanadi. F.F.Fortunatov ham grammatik ma'noning shakliy ifodasiga katta e'tibor beradi. U garchi ma'noni e'tibordan chetda qoldirmasa ham, lekin grammatik shaklni belgilashda tovush sostavi birinchi planga qo`yiladi. Uning ta'kidlashicha, *ruku (pyky)*, *nogu (nozy)*, *vodu (vody)* kabi so`zlardagi-

*u* tovushi *ruka, noga, voda* kabi soʻzlarda berilgan maʼnoni oʻzgartirish uchun xizmat qiladi. Maʼlum belgiga qoʻshilib, uning maʼnosini oʻzgartiradigan, bir belgidan ikkinchi belgini hosil qiladigan tovush sostavi ham, oʻz navbatida, belgi, shakliiy maʼnoga ega boʻlgan belgi sanaladi. F.F.Fortunatov soʻzning grammatik shaklini beld gilashda soʻzlarni asosiy (moddiy) maʼnoli va shakliiy maʼnoli qismlarga ajratadi. Alohida soʻzning shakli deganda soʻzlovchi ongida alohida soʻzning oʻzidan asosiy va formal qismni ajrata olish imkoniyati tushuniladi. Soʻzning boshqa shakllarida ham takrorlanadigan, barcha shakllar uchun umumiy qism sanaladi. Asosiy qismning shakl tomonini oʻzgartirish uchun xizmat qiladigan soʻzning qismi esa shakliiy qism hisoblanadi. Shunday qilib, F.F.Fortunatov fikriga koʻra, soʻzning grammatik shakli uning tuzilish qismlarga boʻlinish imkoniyatidir. Soʻzning tuzilish qismlari asosiy, yaʼni oʻzak va shakliiy, yaʼni shakl yasovchi affikslardan iborat boʻladi. Soʻz birdan ortiq shaklga ega boʻlishi ham mumkin. Shuning uchun ham ularni farqlash uchun F.Fortunatov soʻz oʻzgarish shakli va soʻz yasaliish shakli tushunchalarini kiritadi. Soʻzlar shakliiy belgisiga koʻra soʻz oʻzgarish shakliga ega boʻlgan, bunday shaklga ega boʻlmagan soʻzlarga ajratiladi. Soʻz oʻzgarish shakliga ega boʻlmagan soʻzlar soʻz yasaliish shakliga ega boʻlgan va hech qanday shaklga ega boʻlmagan, shaklsiz soʻzlarga boʻlinadi. F.F.Fortunatov soʻz oʻzgarish paradigmasida nol shaklni ham ajratadi. Natijada soʻz shaklini moddiy va shakliiy qismlar birligi sifatida tushunishga imkoniyat yaratdi. Dom soʻzini uning boshqa shakllariga (*dom-a, dom-u*) qiyoslaganda, moddiy qism nol shaklga ega ekanligi maʼlum boʻladi.

4. Grammatik shaklga sof shakliiy tomondan yondashishga A.A.Potebnya chek qoʻydi. Maʼlum grammatik shakl alohida tovush bilan ifodalanishi shartmi? degan savolga u maʼlum soʻzdan boshqa soʻz yasalganda yasalma tarkibida doimo tovush tomonda oʻzgarish roʻy beradimi? deb savolga savol bilan javob beradi. Boshqacha aytganda, soʻzdagi maʼlum tovushni oʻzgartirish bilan uning shaklida oʻzgarish roʻy beradimi? Uning fikricha, soʻzning tovush qiyofasini oʻzgartirish doimo grammatik maʼnosini oʻzgartira barmaydi. Aksincha, baʼzi vaqtlarda soʻzning grammatik shakli tovush tomonidan farqlanmasligi mumkin: **jenyu-женю** (kelasi zamon) va **jenyu-женю** (hozirgi zamon). Shuning uchun ham A.A.Potebnya soʻzning shakli uning tovush tomoni bilan izohlanishi mumkin emasligini ishonchli dalillar bilan isbotlab berdi. U birinchi boʻlib soʻzning formasini uning ichki mazmuni bilan, mazmuniy grammatik tuzilishi bilan bogʻliq ekanligini taʼkidlaydi. Shunday qilib, A.A.Potebnya oʻziga qadar hukm surgan shakl bir tomonlama yondashuvga shakl bu soʻzning tovush tomoni elementi, deb qarashga chek qoʻydi. U grammatik shaklni tovush emas, balki maʼno ekanligini qayta-qayta takrorladi. A.Potebnya grammatik shaklni paradigmada - soʻz semantiq maʼnosini reallashtiruvchi soʻz oʻzgarish sistemasida aniqlash lozimligini koʻrsatadi. "Bu shakl men uchun turlanish va tuslanish tartibida egallangan oʻrniga koʻra maʼlum maʼnoga ega boʻladi", - deydi u. Bundan shu narsa maʼlum boʻladiki, soʻzning shakli tashqi belgisi orqaligina emas, balki soʻzning paradigmadagi oʻrni bilan aniqlanadigan mazmun orali ham belgilanadi. A.Potebnyaning taʼkidlashicha, koʻp qollarda GSh tovush ifodasiga ega boʻlmasligi mumkin: GSh faqat soʻzning shakliiy vositalari orqaligina emas, balki uning sintaktik aloqasi orqali ham ifodalanishi mumkin. Shunday qilib, A.A.Potebnya GSh deganda semantiq va sintaktik elementlarning sintezini tushunadi va bunday qarash uni GSh ni faqat affikslardan iborat deb tushunuvchi tilshunoslardan keskin farqlab turadi.

GSh ni zidlash asosida ajratishni tavsiya etadi. Uning fikricha, GSh sistemani tashkil etadi. Maʼlum GSh maʼnosi haqida faqat shu vaqtda gapirish mumkinki, qachonki u boshqa GSh ga zidlansa. Masalan, *ya konchil (я кончил)* gapida *konchil (кончил) ning tugallanganlik maʼnosi* bevosita uning tovush tarkibi orqali emas, balki tilda unga zidlanadigan boshqa shakl *konchal (кончал)* shakli birligi bilan farqlanadi. Shuningdek, soʻzning shakli Grammatik qurshov, kontekst, gapning sintaktik tuzilishida soʻzning pozitsiyasi bilan aniqlanishini koʻrsatadi.

Soʻzning shakli mazmunli ekanligi, u, albatta, grammatik ifodalansa ham, lekin ifodalanmishining tashqi belgisi orqaligina emas, balki paradigmatic munosabatdagi oʻrni va sintagmatik aloqasi orqali aniqlanishi haqidagi fikr A.A.Potebnya taʼlimotining eng qimmatli

tomonidir.

5. V.I.Degteriyov ta'kidlaganidek, so'zning mohiyatli tomoni uning moddiy - tovush kompleksiga, struktur - grammatik bo'linishiga tayanadigan leksik - grammatik mazmuni hisoblanadi. Mazmun shakllangan bo'ladi. So'zning moddiy - tovush tuzilishi va morfemik bo'linishi so'z va uning grammatik shaklining moddiy tayanchi, yashash usulini tashkil qiladi. Shakl - mazmunning ichki shakllanishi, uning qismlarining bo'linishi, o'zaro aloqasi va o'zaro harakatidir.

6. Dialektik falsafaga muvofiq, shakl deganda, mazmunning tashqi ifodalanish usuli, mazmun elementlari aloqalarining nisbatan barqaror muayyanligi va ularning o'zaro ta'siri, mazmunning tipi va strukturasi tushuniladi. Ko'rinadiki, mazmunning tashqi ifodalanishi usuli shaklning faqat bir tomoni sanaladi. Obyektning shakl va mazmunga bo'linishining o'zi faqat ularning chambarchas birligi doirasida mavjuddir. Ularning birligi esa faqat ichki uzviy bo'linish sifatida mavjuddir. Shakl bilan mazmun har bir konkret obyektida bir-biridan ajralmasdir. Shakl mazmun ustiga qo'yilgan qandaydir tashqi po'stloq emas.

7. Shakl ichki va tashqi birlikdan iborat. Mazmun elementlarining bog'lanish usuli sifatida shakl ichki bir hodisa sanaladi. U obyektning strukturasi tashkil etadi va mazmunning bamisoli bir momenti bo'lib qoladi. Muayyan mazmunning boshqa narsalar mazmuni bilan bog'lanish usuli sifatida shakl tashqi bir narsadir. Shakl bilan mazmun o'rtasidagi qarama-qarshilikni qarab chihayotganda shuni nazardan qochirmaslik kerakki, mazmun shaklsiz bo'lmaydi. Shakl esa ayni vaqtda mazmunning uzvda ham mavjuddir va unga nisbatan tashqi bir narsadan iborat.

8. I. Degteriyov to'g'ri ta'kidlaganidek, grammatik shaklni faqat ma'noning ifoda vositasi sifatida tushunib bo'lmaydi. U so'z grammatik ma'nosining tuzilishida, mazmun momentida ham o'z ifodasini topadi. Ma'no tuzilishi sifatida grammatik shakl so'zning leksik ma'nosi bilan undan abstraktlantirilgan va mustaqil ravishda hamkorlik qiladi. Xususan, o'zgarma so'zlar ham muayyan grammatik shaklga ega. Masalan, ravish shakli orqali, ravishlik belgisining ketegorial ma'nosiga ko'ra belgilanadi. Ot shaklning grammatik ma'noni ifodalovchi moddiy vositalargina emas, balki grammatik ma'noning ichki tuzilishi sifatida ham tushunish tilda shaklsiz so'zlar ham bo'lishi mumkin degan fikrni to'la rad qiladi. Ma'noni shaklsiz, i shaklni esa ma'nosiz tasavvur etish mumkin emas. O'z navbatida shaklsiz, grammatik shakllanmagan, grammatik tuzilishga ega bo'lmagan tilning bo'lishi mumkin emas. Shu nuqtai nazardan amorf tillarning ajratilishi shaklni bir yoqlama tushunishning mahsulidir. So'zning grammatik shakli uning morfem tuzilishiga, paradigmasiga va sintagmatik munosabatiga tayanadi. Shunday qilib, hozirgi tilshunoslikda grammatik shaklga ikki xil yondashuv amal qilmoqda. Birinchisi grammatik shaklni muayyan grammatik ma'noni ma'lum moddiy vositalar yordamida ifodalanishi, so'zning grammatik shakllangan moddiy - tovush turi sifatida talqin etadi. Ikkinchisi esa shaklni grammatik ma'noning ichki tuzilishi sifatida tushunadi. Garchi grammatik shaklga bunday ikki xil qarash bir-biriga ziddek ko'rinsa ham, aslida bir-birini inkor qilmaydi. Grammatik birlikni ikki tomondan tavsiflaydi: biri ma'no plani asosida, ikkinchisi esa ifoda plani asosida izohlaydi.

8. I.Degteriyov grammatik shaklning bu ikki turi uchun ikki xil atamani - mazmun shakli (MSh) va ifoda shakli (ISh) atamalarini tavsiya etadi.

9. So'z grammatik ma'nosining tuzilishi ichki tuzilish usuli sifatidagi shakl mazmuniy shakl (MSh), so'z grammatik ma'nosining moddiy morfologik tuzilishi sifatidagi shakl ifoda shakli (ISh) hisoblanadi.

V.I.Degteriyovning fikricha, MSh va ISh so'z grammatik tuzilishining o'zaro muvofiqdoshan ichki va tashqi tomonlaridir. Ikki xil shakl tushunchasi tilning ikki tomonlama mohiyatiga muvofiq keladi. MSh va ISh dialektik birlikda va hamkorlikda so'z grammatik shaklni hosil qiladi. Shunday qilib, grammatik shaklga bunday yondashuvda, so'z grammatik ma'nosining tuzilishi, ichki bo'linishi va aloqasi MSh ni tashkil etadi. So'zning moddiy - tovush tomondan morfologik bo'linishi IShni hosil qiladi. Bu ikki shakl birlikda so'zning grammatik shaklni hosil qiladi. MI ISh ga tayanadi va unda voqelanadi. MSh so'zning morfemik bo'linishini, struktur shakllanishi, paradigmatic qatori bilan hamda so'zlarning sintagmatik munosabati orqali o'z ifodasini topadi. Grammatik shakl talqinining har ikki yo'nalishini

umumlashtirganda, grammatik ma'no ifodalanishining quyidagi usullarni ko'rsatish mumkin: alohida morfemalar, yordamchi so'zlar, ohang, so'zning morfemik bo'linishi, struktur shakllanishi, paradigmatic qatori va sintagmatik munosabati. Yuqorida ta'kidlaganidek, grammatik shakl grammatik ma'no bilan dialektik bog'liqdir. Shuning uchun ham grammatik shakl va grammatik ma'no o'rtasidagi munosabatlar tilshunoslar diqqatini o'ziga tortib keladi. Praga lingvistik maktabi vakillari Karsevskiy va Skalichkalar shakl va mazmun o'rtasida mavjud bo'lgan nomutanosiblikni ochib berishga harakat qildilar.

10. Amerika tilshunosi Xokket ham grammatik shakl va grammatik ma'no munosabatiga e'tibor berar ekan, ular o'rtasida ko'pincha nomuvofiqlik mavjudligini e'tirof etadi. Shuning uchun bo'sh element (morf) atamasini kiritdi. Mazmunsiz, biron-bir vazifa bajarmaydigan ifoda plani birligini bo'sh morf deydi. Bo'sh morf tushunchasiga zid ravishda nol birlik (morfema) tushunchasi paydo bo'ldi. Bo'sh morf bilan nol birlik bir-biriga zidlanuvchi va bir-birini taqozo qiluvchi birliklardir. Bo'sh element (morf) - bu ifodalanmishdan mahrum bo'lgan belgi; Nol birlik esa ifodalovchisi bo'lmagan ifodalanmish. har ikki holda assimetrik, bir yoqlama belgi haqida fikr yuritiladi.

11. N.D.Arutyunova ta'kidlaganidek, belga belgiligini yo'qotmasdan turib bir yoqlama bo'lishi mumkin emas. Nol elementlarning xususiyati ifoda shaklining yo'qligida emas, balki uning o'ziga xosligidadir. Shuning uchun nol element ham va uning ziddi bo'lgan bo'sh element ham bir yoqlama belgi sifatida qaralishi mumkin emas. Shuning uchun ham bunday qollarda ayrim mualliflar ma'noli ifodalanmaslik (znachimogo otsutstviya) atamasini tavsiya etadi.

12. A.V.Isachenko ma'lum grammatik ma'noni ifodalash uchun xizmat qiladigan tashqi lisoniy vositalarni kategorial ko'rsatkichlar hisoblaydi. Uning fikricha, kategorial ko'rsatkichlar o'z tabiatiga ko'ra belgi hisoblanadi. Kategorial ko'rsatkich har qanday belgi kabi ikki tarkibiy qismdan tashkil topadi: tashqi moddiy vosita - ifodalovchi (designator) va ifodalanmish (designat). Faqat har ikki qismning bir vaqtda ishtirokidagina belgini belgi qiladi. Uning fikricha, ifodalovchi bilan ifodalanmish aloqasi tarixan tarkib topgan. Bu aloqa ushbu semantiq sistema bilan foydalanuvchi barcha jamoa a'zolari uchun majburiydir. "Omonimlik" kategorial ko'rsatkichlarning mavjudligi buning guvohidir. Rus tilidagi *-a* turli kategorial ko'rsatkichlar sifatida qo'llanilishi mumkin: *sestr-a, stol-a, dom-a...*

Kontekstdan uzib olgan *-a* qanday grammatik ma'nolarni ifodalaydi, deb so'rash mantiqsizlikdir. Ma'lum ifodalanmish (designat) bilan bog'lanmagan ifodalovchi (designator) belgi hisoblanmaydi.

O'zbek tilidagi ot tovush qatori (yoki grafik tasvir) hali lisoniy belgi emas. U faqat ma'lum ma'no bilan (yoki "ism" bilan, yo "hayvon" bilan, yo "harakat" bilan) bog'langandagina belgiga aylanadi. So'zlovchi uchun omoniya muammosi yo'q. Chunki otni talaffuz etar ekan va uni sintagmatik munosabatini yuzaga chiqarar ekan, u hech omonimdan foydalanayotganini o'ylamaydi. Ifodalovchini ifodalanmish bilan bog'laydi. Tinglovchi ham shu nutqiy vaziyatda so'zlovchi uzatgan axborotni qabul qiladi. Demak, u ham ifodalovchini aniq bir ifodalanmish bilan bog'laydi. Shuningdek, sintaktik birliklarda ham shakliy tuzilish birliklari bilan mazmuniy tuzilish birliklari ko'pincha muvofiq kelmaydi. Masalan, Keldim gapida mazmuniy tuzilish birliklari agens (bajaruvchi subyekt) va uning harakati (predikati) o'rtasidagi munosabatdan tashkil topib, shakliy tuzilish bo'yilcha faqat bir so'zdan - fe'l kesimdan tashkil topgan.


6. Sabab va oqibat ham borliqsagi narsa va hodisalar o'rtasidagi aloqadorlikni ifodalovchi bir kategoriyadir. Darhaqiqat, dunyodagi narsa va hodisalar o'zlarining paydo bo'lishlari, shakllanish va rivojlanishlarida o'zaro aloqadorlikda bo'ladi va bu aloqadorlikda biri sabab, ikkinchisi esa shu sabab tufayli yuzaga chiqqan oqibat bo'ladi. Muayyan hodisalarni yuzaga keltirgan, lekin bevosita sezgi a'zolarimizga berilmaydigan yashirin jihat, mohiyat sabab, u tufayli yuzaga chiqqan, sezgi a'zolarimiz yordamida his qiladigan narsa va hodisalar oqibat sanaladi. Sababsiz oqibat yo'q va bo'lishi ham mumkin emas. Sezgi a'zolari yordamida amaliy bilim jarayonimizda oqibatlarga duch kelamiz. har qanday tadqiqotchining vazifasi oqibatni o'rganish orqali uning zamirida yashiringan sababni aniqlashdan, ularning ikkalasi o'rtasidagi sababiy bog'lanishni, sababiyatni ochishdan iborat bo'lishi kerak. Masalan, ma'lum bemordan

isitma chiqayapti. Bizning sezgi a'zolarimiz uning isitmasi borligini his qiladi. Ko'zimiz bilan ikki yuzi qizarganini, ko'zlari xorg'inligini, lablari qurishganligini ko'ramiz. Qo'limiz bilan peshonasini ushlab ko'rish orqali isitmaning me'yordan ko'tarilganini bilamiz. Lekin bizning bu bilishimiz amaliy bilish sanaladi. Nimaning natijasida isitma chihayotganligini, uning sababini bunday yo'l bilan bila olmaymiz. Buning uchun bir qancha tashqi belgilarni solishtirish kerak bo'ladi va buning natijasida isitma ortida yashiringan sabab aniqlanadi. Sabab va oqibat aloqadorligi, sababiyat til sistemasi va uning funksiyasida ham amal qiladi. Xususan, nutqiy jarayonda turli xil fonetik o'zgarishlar ro'y beradi. Bu fonetik o'zgarishlar ham ma'lum sababiyat tufayli maydonga keladi. Chunki til sistemasidagi har bir o'zgarish ham, shuningdek, bevosita nutqiy jarayondagi o'zgarishlar ham ma'lum sababiyat natijasidir. Har qanday fonetik o'zgarishlarning sababi insonning talaffuz qilish qulayligiga intilish harakati natijasidir. Sabab talaffuz noqulayligini bartaraf etish, oqibat esa fonetik o'zgarish, ya'ni qulaylikka erishish. Nutqiy jarayondagi ana shu sababiyatga yosh grammatikachilar maktabi vakillari katga e'tibor berdilar va nutqsagi har bir fonetik o'zgarishlar zahirida sababni topishga alohida diqqatni jalb qiladigan falsafadagi imkoniyat va voqelik dialektik bog'lanishi ham til dixotomiyasida yorqin o'z ifodasini topadi. Imkoniyat yuzaga chiqmagan, lekin yuzaga chiqishli bo'lgan voqelikdir. Uning yuzaga chiqishli voqeiklarni vujudga keltiradi. Agar bu aloqadorlikni tilshunoslik asosida ko'ib cniqadigan bo'lsak, til - nutq dixotomiyasida barcha til birliklari imkoniyat, ularning nutq jarayonida turli xil moddiy ko'rinishlari voqeliklar sanaladi.

8. Bulardan tashqari dialektikadagi taraqqiyot qonun miqdor va sifat o'zgarishlari birligi qonuni, qarama-qarshiliklar birligi qonuni, inkorni inkor tilda ham amal qiladi.

9. Dialektikaning bir shakli sinergetikadir. Sinergetika tabiat va jamiyat taraqqiyotida oraliq, o'tkinchi holatlarning bo'lishi mumkinligini e'tirof etadi. U taraqqiyot jarayonida beqaror holat bilan barqaror holat o'rtasidagi qonuniyatga tayanadi. Barqarorlik qonuniyat va sababiyat natijasidir. Uni oldindan bilish, boshqarish mumkin. Barqarorlik hodisaning mohiyatini tushunish uchun unga teran va sinchkov nazar tashlash lozim bo'ladi.

Bunday oraliq holatlar tilshunoslikka ham aslo dahldordir. Shuning uchun ham ayrim tilshunoslar lingvistik birliklarni o'rganlar ekanlar ularni markaziy va chegara holatlarga ajratadilar. Chegara holatday birliklarda ikki qutbiy birliklarga xos xususiyatlar aralashgan, tutashgan bo'ladi. Bunday holati quyidagi sxema orqali tasvirlash mumkin:



Chegara holatday birliklarda ikki qutbiy birliklarga xos xususiyatlar aralashgan, tutashgan bo`ladi. Masalan fonologik sathda unilarning og`iz ochilish darajasi belgisi bo`yicha zidlanishida tor va keng unililar oralig`ida tor ham keng ham bo`lmagan o`rta keng (o`rta, tor) unililar mavjud. Yoki so`z turkumlari sistemasida mustaqil va yordamchi so`zlar zidlanish oralig`ida mustaqil so`zlarga ham, yordamchi so`zlarga ham kirmaydigan, har ikkisinining belgisini qisman o`zida mujassam etgan so`zlar guruhi bor. Bunday misollarni tilning har bir sathi bo`yicha ko`plab keltirish mumkin. Shu faktning o`ziyoq til sistemasidagi oraliq holatlarning dialektika qonuniyatlariga muvofiq kelshini ko`rsatadi. Yuqoridagilardan ko`rinadiki, tilshunoslikdvgi turli xil muammolarni obyektiv hal qilishda falsafaga tayanib ish ko`rish katta ahamiyat kasb etadi.